

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
«TABIYOT FANLARI» FAKULTETI
«Geografiya va uni o'qitish metodikasi» kafedrası

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Fakultet dekani

_____ E.RYuzlikayeva

« ____ » _____ 2014 yil

5140500 - «Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» ta'lim yo'nalishi

402- guruh talabasi

ABDULLAYEV MURTOZA ISMATULLAYEVICHning

“Urbanizatsiya jarayonining mintaqaviy tafovutlari”

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: «Geografiya

va uni o'qitish metodikasi»

kafedrası dotsenti, g.f.n

_____ N.Safarova

«Himoyaga tavsiya etilsin»

«Geografiya va uni o'qitish

metodikasi» kafedrası mudiri

_____ g.f.n., dots. N.R.Alimqulov

« ____ » _____ 2014 yil

TOSHKENT – 2014

Nizomiy nomidagi TDPU Tabiiyot fanlar fakulteti "Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari" yo'nalishi 402-gurux talabasi Abdullayev Murtoza Ismatullayevichning "Urbanizatsiya jarayonining mintaqaviy tafovvtlari" mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Bugungi kunda mamlakatlarning industrial va texnologik va hokazo mezonlar bilan belgilanuvchi rivojlanish darajasi urbanizatsiya darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Talaba M.Abdullayev o'z ishida Urbanizatsiya jarayonining mintaqaviy tafovvtlari, zamonaviy urbanizatsiya ko'rsatgichlari, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi urbanizatsiya jarayoni, hamda O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonining holati tahlil qilingan. Mazkur malakaviy bitiruv ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishda xarita-chizma, jadval, diagrammalar keltirilgan. Tadqiqot ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, tadqiqot obekte, predmeti bayon etilgan. Ishning birinchi bobi: "Urbanizatsiya jarayonining geografik asoslari" tahlil qilingan. Hamda urbanizatsiya jarayonining shakllanishi va rivojlanishi, zamonaviy urbanizatsiya jarayonining iqtisodiy geografik jihatlari, Urbanizatsiya jarayonining ijtimoiy natijalari va oqibatlari. ochib berilgan. Ishning ikkinchi bobi: Urbanizatsiya jarayoni rivojlanishining mintaqaviy tafovvtlari Rivojlangan varivojlanayotgan davlatlarga xos urbanizatsiya jarayoni, xususiyatlari. O'zbekistondagi urbanizatsiya jarayonining o'ziga xos jihatlari bag'ishlangan. Ishning uchinchi bobi: Urbanizatsiya jarayonining mintaqaviy tafovvtlari" mavzusini o'qitish metodikasiga bag'ishlangan. M. Abdullayev tomonidan yozilgan bitiruv malakaviy ishi DAK talablariga mos keladi. Ishning mazmunidan kelib chiqib, uni ijobiy baholashga loyiq deb hisoblayman va himoyaga tavsiya etaman.

M. Ulug'bek nomidagi O'z.MU
Geografiya fakulteti
Ijtimoiy geografiya va demografiya
Kafedra dotsenti g.f.n

M. Egamberdiyeva

Nizomiy nomidagi TDPU Tabiiyot fanlar fakulteti "Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari" yo'nalishi 402-gurux talabasi Abdullayev Murtoza Ismatullayevichning "Urbanizatsiya jarayonining mintaqaviy tafovvtlari" mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Shaharlar barcha zamonlarda rivojlanish uchun turtki bo'luvchi asosiy nuqtalar sifatida xizmat qilib kelgan. Ularning bu xususiyati fan-texnika taraqqiyotidan keyin ayniqsa umumjahon mezoniga aylandi. Bugungi kunda mamlakatlarning industrial va texnologik va hokazo mezonlar bilan belgilanuvchi rivojlanish darajasi urbanizatsiya darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Talaba M.Abdullayev o'z ishida Urbanizatsiya jarayonining mintaqaviy tafovvtlari, zamonaviy urbanizatsiya ko'rsatgichlari, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi urbanizatsiya jarayoni, hamda O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonining holati tahlil qilingan. Mazkur malakaviy bitiruv ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishda xarita-chizma, jadval, diagrammalar keltirilgan. Tadqiqot ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, tadqiqot obekte, predmeti bayon etilgan. Ishning birinchi bobi: "Urbanizatsiya jarayonining geografik asoslari" tahlil qilingan. Hamda urbanizatsiya jarayonining shakllanishi va rivojlanishi, zamonaviy urbanizatsiya jarayonining iqtisodiy geografik jihatlari, Urbanizatsiya jarayonining ijtimoiy natijalari va oqibatlarini ochib berilgan. Ishning ikkinchi bobi: Urbanizatsiya jarayoni rivojlanishining mintaqaviy tafovvtlari Rivojlangan varivojlanayotgan davlatlarga xos urbanizatsiya jarayoni, xususiyatlari. O'zbekistondagi urbanizatsiya jarayonining o'ziga xos jihatlari bag'ishlangan. Ishning uchinchi bobi: Urbanizatsiya jarayonining mintaqaviy tafovvtlari" mavzusini o'qitish metodikasiga bag'ishlangan. M. Abdullayev tomonidan yozilgan bitiruv malakaviy ishi DAK talablariga mos keladi. Ishning mazmunidan kelib chiqib, uni ijobiy baholashga loyiq deb hisoblayman va himoyaga tavsiya etaman.

Tabiiyot fanlari fakulteti
"Geografiya o'qitish metodikasi"
kafedra o'qituvchisi:

M. Qalandarova

Nizomiy nomidagi TDPU “Tabiiyot fanlari” fakulteti
“Geografiya va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasining
30.04.2014 yildagi № 17 - sonli yig‘ilish bayonnomasidan

K O‘ C H I R M A

Kun tartibi:

1. BMI muhokamasi

So‘zga chiqdi: Kafedraning bitiruv malakaviy ishlar oldi himoyasi o‘tkazilishiga ma’sul g.f.n. dots. A.Hojimatov 4 - kurs “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabalarining BMilarining dastlabki muhokamasi o‘tkazilishi to‘g‘risida ma’lumot berdi.

BMI muhokamasi bo‘yicha 402- guruh talabasi Abdullayev Murtoza so‘zga chiqdi:

BMI mavzusi: “Urbanizatsiya jarayonining mintaqaviy tafovvtlari ”

Ilmiy rahbar: gfn. dots. N. Safarova.

Talaba BMI mavzusi yuzasidan “Urbanizatsiya jarayonining mintaqaviy tafovvtlari” to‘g‘risida ma’lumotlar berdi.

Talabaga quyidagi savollar berildi:

g.f.n dots. A.Hojimatov.

- 1) Ishning necha foizi tugallangan?
 - 2) Rivojlangan davlatlarda urbanizatsiya jarayoni qanday kechmoqda.
 - 3) Rivojlanayotgan davlatlarda urbanizatsiya jarayoni qanday kechmoqda
- g.f.n.dots. A.Xojimatov

- 1) BMIning umumiy hajmi qancha, qanday talab asosida?.
- 2) O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayoni qanday kechmoqda

Talaba M. Abdullayev berilgan savollarga to‘liq javob berdi.

QAROR QILINDI:

1. Talaba M. Abdullayevning “Urbanizatsiya jarayonining mintaqaviy tafovvtlari” mavzusidagi BMI tugallangan ish deb hisoblansin va himoyaga tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:

N. Alimqulov

Kotiba:

M. Qalandarova

Tashkent state pedagogical university named after Nizami natural science faculty geographical and economical knowledge foundation departure 402-group student Abdullayev Murtazo's annotation for final qualification work on the theme continental distinction process of urbanization.

Annotation

“The developing process of urbanization and its continental features is learnt ad so that the state of forming megalopolises is analyzed. Thus, the developing process of urbanization in Uzbekistan learnt”.

Nizomiy nomidagi TDPU Tabiiyot fanlar fakul'teti «Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» yo'nalishi 402-gurux talabasi Abdullaev Murtozaning “Urbanizatsiya jarayonining mintaqaviy tafovvtlari”

mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga

ANNOTATSIYA

Urbanizatsiya jarayoni, uning mintaqaviy xususiyatlari hamda zamonaviy urbanizatsiya ko'rinishi bo'lgan aglomeratsiya, megalopolislar o'rganib chiqilgan. Shu bilan birga O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonining o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan.

АННОТАЦИЯ

По выпускной квалификационной работе на тему «Региональные различие урбанизационного процесса» студента 4-курса Ташкентского Государственного Педагогического Университета им. Низами, факультета «Естественных наук», по направлению «География и основы экономических знаний» Абдуллаева Муртози.

Изучена урбанизационный процесс, их региональные различие и типы современного урбанизационного процесса агломерация, мегалополис. Проанализирована свойства урбанизационного процесса в Узбекистане.

Низомий номидаги ТДПУ Табиёт фанлар факультети «География ва иқтисодий билим асослари» йўналиши 401-гуруҳ талабаси Абдуллаев Муртоза Исматуллаевичнинг “Урбанизация жараёнининг минтақавий тафоввутлари”

мавзусида ёзган битирув малакавий ишига илмий раёбар

ХУЛОСАСИ

Урбанизация жараёни ўз хусусиятларига кўра давлатлар ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражасини аниқлаб берувчи кўрсаткичлардан бири бўлиб ҳам қисобланади. Асосан XX асрнинг бошларида ривожланишни бошлаган мазкур жараён илмий тараққиёт жараёни тезлашган 1950-йиллардан сўнг юзори суъратларда ривожлана бошлади. Жаъон давлатларида ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражаси ёлатига араб урбанизация турли кўринишларга эга. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда урбанизация жараёни суъратлар ортиб, ёозирги кунга келиб ушбу кўрсаткич 51,2%га кўтарилди. Мазкур ёолатларни тақлил қилиш ушбу битирув малакавий ишининг асосий вазифаси қисобланиб, танланган мавзу долзарблигини кўрсатиб беради.

Битирув малакавий иши кириш, 3 боб, хулоса, битирув малакавий иши бўйича ўзбек, рус ва инглиз тилларидаги аннотация, фойдаланилган адабиётлар рўйқати ва мавзуга оид атамаларнинг инглизча таржимаси берилган луқатдан ташкил топган.

Биринчи боб уч қисмдан иборат бўлиб, унда урбанизация жараёнининг илмий-назарий асослари кўриб чиқилган. Иккинчи боб эса икки банддан ташкил топган ва урбанизация жараёнининг ривожланишида минтақавий тафоввутларнинг юзага келиш сабаблари қақида маълумотлар берилган. Учинчи боб ҳам икки қисмдан ташкил топган бўлиб, унда битирув малакавий иш мавзусини умум таълим мактабларида ўқитиш масалалари тақлил қилинган.

Абдуллаев Муртоза Исматуллаевичнинг “Сурхондарё вилояти саноат тармоқлари ривожланиши ва истиқболлари ” мавзусида ёзган битирув

малакавий ишини Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги томонидан белгиланган ДАК талаблари асосида тайёрланган деб Ёисоблайман ва уни Ёимояга тавсия этаман.

“География ва уни ўЁитиш

методикаси” кафедраси доц. в/б:

г.ф.н. Н.И.Сафарова

Mundarija

Kirish.....	3
1-Bob. Urbanizatsiya jarayonining geografik asoslari.....	5
1.1 Urbanizatsiya jarayonining shakllanish va rivojlanishi.....	5
1.2 Zamonaviy urbanizatsiya jarayonining iqtisodiy geografik jihatlari.....	17
1.3 Urbanizatsiya jarayonining ijtimoiy natijalari va oqibatlari.....	22
2-Bob. Urbanizatsiya jarayoni rivojlanishining mintaqaviy tafovvtlari.....	28
2.1. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarga xos urbanizatsiya jarayoni, xususiyatlari.....	28
2.2. O'zbekistondagi urbanizatsiya jarayonining o'ziga xos jihatlari.....	50
3-Bob. "Urbanizatsiya jarayonining mintaqaviy tafovvtlari" mavzusini o'qitish metodikasi.	57
3.1. "Urbanizatsiya jarayoni va shaxarlarning rivojlanishi" mavzusini o'qitishda mintaqaviy tafovvtlar masalasini yoritish.....	57
3.2. Dars ishlanmasi va natijalar tahlili.....	62
Xulosa.....	68
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	69

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, shahar aholi manzilgohlarining shakllanishi uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. Har bir davr ularning tuzilishi, ixtisoslashuv holatining o'zgarishiga, hududiy tarqalishiga ta'sir ko'rsatib kelgan. Ayniqsa, XX asr boshlarida jahon iqtisodiyotida yuz bergan o'zgarishlar shaharlar funksiyalari va ularning maydonini kengayishiga sababchi bo'ldi. Urbanizatsiya jarayoni rivojlanishi boshlandi. Har qanday siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayon har bir mintaqada o'z xususiyatlariga ega bo'lgan holda namoyon bo'lgani kabi urbanizatsiya jarayoni ham o'z mintaqaviy tafovutlariga ega. U har bir mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati, u yerda joylashgan davlatlar ixtisoslashuviga bevosita bog'liq. Ayni holatda urbanizatsiya darajasi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini aniqlovchi mezonlarning biri sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonning tabiiy sharoiti qulay, tekislik hududlari qadimiy oykumena markazlaridan biri bo'lib, bu yerda tarixi bir necha asrlarga teng bo'lgan shaharlar ko'pchilikni tashkil qiladi. So'nggi yillarda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat shaharlarning zamonaviy ko'rinishga ega bo'lishiga sababchi bo'lmoqda. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov shunday deydi: "...Hozirgi vaqtda butun O'zbekistonimiz, ta'bir joiz bo'lsa ulkan qurilish maydoniga aylangan. Xususan viloyatlar markazlarini bosh reja asosida rivojlantirish maqsadida yirik loyixalar amalga oshirilmoqda.

Misol tariqasida 2013 yilning birgina o'zida Urganch shahrida 344 mlrd sumlik qurilish va obodonlashtirish ishlari olib borilganligini aytib o'tish joizdir. Ana shunday katta hajmdagi ishlar bajarilganini aytish o'rinlidir. 2013 yil yakunlari buyicha 966 ta qishloqga shaharcha maqomi berildi..."¹

¹ I.A.Karimov. Amalga oshirilayotgan islohatlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyati qurish - yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. Xalq so'zi. 10.12.2013 y.

Maqsadi: Urbanizatsiya darajasining mintaqaviy xususiyatlarini tahlil qilish.

Ob'ekti va predmeti: BMI ob'ekti bo'lib urbanizatsiya jarayoni hisoblanadi. Urbanizatsiya darajasi, uning rivojlanishida mintaqaviy tafovvlarning yuzaga kelish sabablarini aniqlash uning predmetini belgilab beradi.

Vazifalari:

- Urbanizatsiya jarayoni, uning rivojlanish bosqichlarini o'rganish;
- Urbanizatsiya jarayonining mintaqaviy tafovvlarni tahlil qilish;
- Uzbekistondagi urbanizatsiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- "Urbanizatsiya jarayoni" mavzusi bo'yicha (9-sinf "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fani misolida) dars ishlanmalari ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati: BMI ma'lumotlaridan 9-sinf "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fanining "Urbanizatsiya jarayoni va shaharlarning rivojlanishi" mavzusini o'tishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ish hajmi: Ishning umumiy hajmi 69- betdan iborat. Unda 2 ta chizma, 5 ta jadval va 6 ta karta-sxema mavjud. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati 16 manbaadan tashkil topgan. Bundan tashqari, ish so'nggida mavzuga oid 160 so'zdan iborat inglizcha-o'zbekcha glossariy, qisqacha o'zbek, rus va ingliz tillaridagi annotatsiya mavjud.

1-Bob.Urbanizatsiya jarayonining geografik asoslari.

1.1.Urbanizatsiya jarayonining shakllanish va rivojlanishi.

Urbanizatsiya (fransuzchada - urbanisation, inglizchada - urbanization, lotinchada - urbanus — shaharga mansub, urbs — shahar) — jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borishi; ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi, aholining ijtimoiy, demografik tarkibi, turmush tarzi va madaniyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. U tarixiy rivojlanish asosida shakllangan jamiyat bosqichlari va hududiy mehnat taqsimoti natijasida sodir bo'lgan ko'p qirrali geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayondir. Uning torroq doiradagi demografik-statistik tushunchasi dunyoda, alohida hududlarda, mamlakatlarda shaharlarning (ayniqsa, katta shaharlarning) va shahar aholisi salmog'ining ko'payib borishini anglatadi. Dastlabki shaharlar mil. av. 3—1ming yilliklarda Misrda, Mesopotamiya, Suriya, Hindiston, Kichik Osiyo, Xitoy, Hindixitoy, shuningdek, Yevropa va Afrikaning O'rta dengiz sohillarida vujudga kelgan. Yunon Rim dunyosida esa Rim va Karfagen shaharlarining mavqei yuqori bo'lgan. O'rta asrlar va uyg'onish davrida kapitalistik ishlabchiqarish unsurlari shakllana boshladi. Bu jarayon shaharlarda aholi sonining o'sib borishiga, konsentratsiyalashuviga olib keldi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda yirik shaharlar paydo bo'la boshladi.

Urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi shaharlarning o'sishi va shahar aholisining shakllanishi, shahar aholisining tabiiy o'sishi, shahar atrofi hududlarining ma'muriy jihatdan shaharga qo'shib borishi, qishloq aholi manzilgohlarining shahar maqomini olishi bilan bog'liqdir. Shaharlarning o'sishida shahar atrofi zonalarida shahar turmush tarzining shakllanib borishi, ya'ni Urbanizatsiya jarayonining kuchayishi ham ahamiyatlidir. Katta shahar

atrofida kichik shaharlar paydo bo'lib, katta shaharlarga qo'shilib boradi va shaharlar aglomeratsiyasi hosil bo'ladi.

Avvalo, urbanizatsiya jarayoni va uning hududlar bo'yicha rivojlanish mezonlari haqida umumiy tushuncha hosil qilish maqsadga muvofiqdir. SHu asnoda tabiiy sharoit omillarining yirik shaharlarga ta'sirini urbanizatsiya jarayonida sezilarli kechishini ko'rish mumkin.

SHaharlar barcha zamonlarda rivojlanish uchun turtki bo'luvchi asosiy nuqtalar sifatida xizmat qilib kelgan. Ularning bu xususiyati fan-texnika taraqqiyotidan keyin ayniqsa umumjahon mezoniga aylandi. Bugungi kunda mamlakatlarning industrial va texnologik va hokazo mezonlar bilan belgilanuvchi rivojlanish darajasi urbanizatsiya darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Bir so'z bilan aytganda urbanizatsiya mamlakat taraqqiyotini belgilovchi asosiy mezondir.

Eng birinchi yirik shaharlar 4 ming yil oldin Mesopotamiya, Nil, Hind, Xuanxe daryolari vodiylarida vujudga kelgan. Shaharlarning vujudga kelishi iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'lanadi. Shaharlar hukmdorlar yashovchi hududlar, bosh vazifasi mudofaa bo'lgan qal'alar sifatida shakllangan. Bunday holatda ular strategik jihatdan eng qulay joyda bunyod qilingan. Meksika va Peru hududlarida Kolumbga qadar davrlarda ulkan shaharlar sivilizatsiyalari rivojlangan. Qadimiy Amerika va Yevrosiyo hududlari bir-biridan butunlay xabarsiz bo'lsada ulardagi shaharlar sivilizatsiyasi o'z xususiyatlariga ko'ra juda o'xshash bo'lgan. O'rta asrlarda dunyodagi eng yirik shaharlar Nankin (470 ming kishi), Qohira (450 ming kishi), Vidjvanagar (350 ming kishi), Pekin (320 ming kishi) bo'lgan. Yevropa mintaqasining eng yirik shahri Parij bo'lib, uning aholisi 275 ming kishi bo'lgan. Milan va Venetsiya shaharlari undan ikki barobar kichik bo'lib, 19-asrda 870 ming aholisi bilan dunyoning eng yirik shahri bo'lgan London aholisi o'sha vaqtda 50 ming kishidan ortmaga 18 – asr boshida dunyo

aholisining 10% dan kamrog'i shaharlarda yashagan. O'rta asrlarda eng katta bo'lgan shaharlar hozirgacha mavjud, ba'zilari rivojlanishdan to'xtab qolgan va provintsiyalar markaziga aylangan yoki butunlay yo'q bo'lib ketgan. Shaharlashish jarayonini qo'yidagi xususiyatlarda ko'rishimiz mumkin.

1) Shahar aholisi sonining o'sib borishida.

2) Ishlab chiqarishning shaharlarda to'planishida.

Shaharlar maydonining kengayib borishida jamiyat rivojlanishi tarixda shaharlarning ma'muriy markaz, madaniy markaz hamda iqtisodiy aloqalar qilinadigan markazlar sifatida roli ortib bordi. 1808 yilda dunyo aholisining 2,4 % ining shaharlarda yashagan bo'lsa, hozirgi kunda bu ko'rsatkich 47 % ga ortib ketdi.

Umuman olganda urbanizatsiya jarayonini quyidagicha shakillanish bosqichlari mavjud.

- I. XIX asrda asosan Yevropa va Shimoliy Amerikada yuzaga keldi.
- II. XX asrning birinchi yarmida butun dunyoda shahar aholisining soni tez suratlarda bilan orta boshladi.
- III. XX asrning ikkinchi yarmida jahon mamlakatlarida shahar aholisi soni ortishi bilan birga shaharlar maydonlari ham kengaya boshladi.

1900 yilda 1,4 % , 1950 yilda 29 % , 1990 yilda 45 % bo'ldi. Davlatning urbanizatsiyalashgan darajasi qo'yidagi ko'rsatkichlar asosida belgilanadi.

1) 50 % dan yuqori bo'lsa, yuqori darajada urbanizatsiyalashgan .

2) 20 – 50 % o'rtacha urbanizatsiyalashgan .

3) 20dan kam bo'lsa, past urbanizatsiyalashgan .

Urbanizatsiyaning quyidagich ko'rinishlari mavjud

- Konurbanizatsiya – shahar aglomiratsiyalari
- Suburbanizatsiya – shahar atrof urbanizatsiyasi
- Rurbanizatsiya – “qishloq” urbanizatsiyasi
- “Shahar portlashi”
- “Soxta” urbanizatsiya

Suburbanizatsiya – shahar atrofidagi manzilgohlar aholisi sonining shahar aholisi hisobiga ortib ketishi

1-rasm.

Suburbanizatsiya ko'rinishi



Rurbanizatsiya – (inglizcha – rural – “qishloq”)- shahar hayot tarzining qishloqlarga kirib borishi

2-rasm.

Rurbanizatsiya ko'rinishi



3-rasm

Jahondagi soxta urbanizatsiya jarayoni ko'rinishlari



Hozirgi kunda urbanizatsiyalashgan hudud jami dunyo hududini 1 % maydoninigina egallagan holda dunyo sanoat mahsulotining 80 % ini ishlab chiqarmoqda. Tabiatga chiqarilayotgan chiqindining 80 %i ham urbanizatsiyalashgan hududlar massasiga to'g'ri kelmoqda.

Shahar aglomeratsiyalari konurbanizatsiya ham deyiladi. Shaharlar hududining kengayib borib, qo'shilib ketishidan yirik shahar megapolislari vujudga keladi. Masalan: Bosvash, Chipits, Sansan, Tokaydo yirik shaharlar atrofidagi qishloqlardagi aholining asosiy qismi sanoat, savdo bilan band bo'ladi. Bunday qishloqlarda hududning kengayishi, ijtimoiy hayotning rivojlanishi – Rururbanizatsiyaga misol bo'ladi. Shaharlar aglomeratsiyasi shaharlarning guruh bo'lib rivojlanishiga, shahar aholisi manzilgoxlarining hududiy jihatdan deyarli bir – biri bilan qo'shilib ketishi yoki bir – biriga juda yaqin joylashishiga, yirik shaharlarning o'z atrofi bilan birgalikda tez rivojlanib asosiy yirik shaharlar bilan uning shahar atrofi zonasi o'rtasida aholining qayta taqsimlanishi jarayoni adabiyotlarda Suburbanizatsiya deb ataladi.

Yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalarining rivojlanishi ular atrofida va orasida joylashgan ko'plab qishloq aholisi manzilgoxlari ham shaharlarga hos hayot obrazining keng tarqalishiga sababchi bo'ladi. Bunday zonalarda joylashgan qishloq aholisi manzilgoxlarida odatda, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagan mehnat faoliyati asosiy o'rin tutadi, aholi qishloq joylarda yashab, shaharlarga borib ishlaydi, aholining har kuni bajaradigan ishlari harakati ko'rinadigan darajada keng tus oladi. Ma'daniy – maishiy talablarni qondirish maqsadlarida ham amalga oshiriladi. Bu rururbanizatsiya jarayoni deyiladi. (ingilizcha “rural” – “qishloq”) rururbanizatsiya “qishloq joylar urbanizatsiyasi” demakdir. Juda yirik urbanizatsiyalashgan rayonlar AQShda keng rivojlangan. Uning shimoliy – sharqiy qismida, Atlantika sohilida aglomeratsiya jarayoni ayniqsa kuchli. Ayrim mamlakatlarda urbanizatsiyaga xos katta va yirik shaharlar, shahar aglomeratsiyalar tez

rivojlanmoqda. Ma'lumki, odatda yirik shaharlar katta yoki kichik aglomeratsiyalarning markazi hisoblanadi. Bular mamlakatning eng yirik sanoat hududidir. Hozirgi zamon urbanizatsiyasi va ayniqsa yirik shaharlar aglomeratsiyalariga geografik muhitga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan shaharlar va aglomeratsiyalar geografik shu hayotga faqat salbiy ta'sir ko'rsatadi deb o'ylaydilar. Urbanizatsiya jarayonida geografik muhitga ko'rsatiladigan ta'sirni yaxshilash, aholi hayoti uchun yanada qulayroq qilish maqsadida amalga oshirish mumkin. Yerlar melioratsiyasi, suv mashini va amallarda saqlanish maqsadidagi tadbirlar, dengiz, daryo, ko'l va suvomborlar iqirg'oqlarining mustahkamlanishi, gidrografik tarmoqlarning rekonstruktsiysi, himoya zonalarini barpo etish va boshqalar shaharlar va shahar atrofi tabiatini yanada qulaylashtirish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar jumlasidandir. Shaharlarning rivojlanish jarayonida tabiatga uzviy ta'sir etishi oqibatida uning turli komponentlari o'rtasidagi muvozanat buzilishi, oqar suvlar va atmosfera xaddan tashqar ifloslanib ketishi, erroziya jarayoni kuchayishi, flora va fauna kambag'allashib kamayib ketishi mumkin. Bunday jarayonlarni maishiy sanoatlarning yirik shaharlari va aglomeratsiyalarida ko'rsa bo'ladi. Sanoat korxonalari va avtomobil transporti, atmosfera va oqar suvlarni ifloslantiruvchi asosiy manbalardir. Dunyoning eng yirik shaharlari bo'lgan Nyu-York, Tokio, Parij, London osmonida sanoat va avtotransport iflosliklaridan iborat sun'iy bulutni har doim ko'rish mumkin. Birgina Nye-York shahrida ham har kuni atmosferaga 3200 t, oltingugut birikmalari 280 t, sanoat changi 4200 t, uglit ko'tariladi. Sotsialistik mamlakatlardagi geografik muhitning bunda y buzilishi va ifloslanishiga yo'l qo'yilmaydi. Eng yirik shaharlarimizda ham atmosfera ancha toza.

Hozirgi zamon urbanizatsiyasi jarayoni global harakterga ega bo'lib deyarli butun dunyoni qamrab olgan.

Zamonaviy shaharlar tizimining shakllanishi 19-asrdan boshlanadi. 19-asrning boshida eng yirik shahar sifatida London hisoblanar edi, uning aholisi 865 ming kishi bo'lgan. Evropada ikkinchi o'rinda Parij (550 ming kishi), uchinchi Neapol (340 ming kishi), ulardan keyin Sankt-Peterburg (330 ming kishi) va Vena (230 ming kishi) turgan. London va Parij shaharlari oralig'ida Osiyo shaharlaridan Pekin, Kanton (800 ming kishi) va Konstantinopol (Istambul) (570 ming kishi) turgan. Aholining shaharlarda to'planib borishi, shaharlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatining ortib borishi butun jamiyat tarixi davomida ro'y berib borgan. Faqat 19-asr boshidagina bu jarayonning tezlashishi kuzatildi. 1800 va 1900 yillar oralig'ida Er yuzi aholisi 1,7 martaga ko'paygani holda, shahar aholisining soni 4,4 martaga ko'paydi, bu raqamlar XX asrda muvofiq ravishda 3,7 va 13,3 martani tashkil etadi. Zamonaviy yirik shaharlarning iqtisodiy, siyosiy va savdo markazlari sifatida rivojlanishi manufaktura va fabrika ishlab chiqarishining paydo bo'lishi bilan bog'lab izohlanadi. Shaharlarda aholining ko'p to'planishi energetikaning taraqqiyoti natijasida amalga oshdi, bu avvalo ko'mirni, keyinchalik neftni qazib olish, tashish va foydalanish texnologiyasining takomillashuvi bilan bog'liqdir. Sanoat inqilobi davrida shaharlarning eng muhim funktsiyalari tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, boshqaruv va rayonlararo tovar ayirboshlash bo'lib qoldi.

Urbanizatsiyaning XX asrdagi jadallashuvi juda avj oldi va shaharlar inqilobi degan nom oldi. Va shu bilan birga bu jarayonning jamiyatga turli darajadagi ta'siri kuchayib, bu hodisani tadqiq qilishning usullarini chuqurlashuviga olib keldi. Shaharlar inqilobining birinchi 20 yilida ya'ni 1950-1970 yillar mobaynida shahar aholisining tabiiy o'sishi butun insoniyat tarixidagi shaharlar aholisining sonidan biroz kam edi. Bu o'sish 83,4% ni tashkil etadi. Undan keyingi 20 yil ichida shahar aholisining ulushi yana 68,7% ga o'sdi. 1950 yilda 1990 yilgacha bo'lgan davrda shahar aholisining salmog'i 3,1 baravarga ko'paydi va XXI-asrning birinchi 10 yilligida shu

tarzda saqlanib turdi. Yuqorida ta'kidlanganidek urbanizatsiyaning yuqori darajasi Yevropaning barcha mamlatlari, AQSH, Kanada, Yaponiya, Avstraliya va Yangi Zelandiyaga xosdir. XX asrning ikkinchi yarmida jahon urbanizatsiyasida rivojlanayotgan davlatlar muhim rol o'ynay boshladi. 1990 yilda ularda dunyo shahar aholisining 61,4% i yashayotgan edi. (1950 yilda bu 38,7% ni tashkil etgan). 2025 yilga kelib bashoratlarga ko'ra bu ko'rsatkich 80% dan ortiqni tashkil etadi. Rivojlanayotgan davlatlarda shaharlarning ko'payib borishi, ularning o'ziga xos jihatlarini hisobga olganda jahon urbanizatsiyaning sifatii rivojlanishini sekinlashtiradi va hududiy tafovutlanishini keskinlashtiradi. Chunki, bu mamlakatlardagi ko'pchilik shahar aholisi yaqinda qishloqlardan ko'chib kelgan bo'ladi va ular yashash tarzi bilan shahar turmush tarzini qishloqlashtiradi. Qisqa muddat ichida qishloqlardan shaharlarga aholining katta qismi ko'chib o'tganda bu vaziyatning yuzaga kelishi tabiiy holdir. Yuqoridagi fikrlar asosan yaqin yillarda shahar aholisining kamligi bilan ajralib turgan mamlakatlarga tegishlidir. Bunday mamlakatlarga Nigeriya misol bo'ladi. Uning poytaxti Lagos 1950-1990 yillar mobaynida 27 baravar kattalashdi va dunyoning eng yirik 8 ta aglomeratsiyalari qatoriga kiradi. Shuningdek bunday xususiyatga ega bo'lgan mamlakatlarga Turkiya, Eron, Xitoy, Hindiston, Rossiya, Braziliya, Meksika, Indoneziya kabilari kiradi. Bu jarayonning boshqa qutbida eng urbanizatsiyalashgan mintaqalar Shimoliy Amerika, G'arbiy Yevropa va Yaponiya turadi. Qishloqlar aholisining shaharlarga ko'chib o'tishi va iqtisodiy rivojlanishdagi bir qancha muvaffaqiyatlar ba'zi mamlakatlarni yuqori darajadagi urbanizatsiyalashgan davlatlarga aylantirib qo'ydi, masalan XX asrning 90-yillari mobaynida Venesuelada urbanizatsiya darajasi 92,9% ga chiqdi, xuddi shunday tendentsiyaning Urugvay (90,3%), Argentina (87,5%), Chili (85,9%), Braziliya (78,7%), BAA (84%), Saudiya Arabistoni (80,2%), Iroq (75,6%), Liviya (86%), Tunis (59%)da kuzatamiz. E'tirof etish kerakki, rivojlanayotgan davlatlarning ko'pchiligida shaharlarga keragidan ortiq aholi

ko'chib kelmoqda va ularning ko'payib borishi shahar aholisi va ularning shahar turmush tarzi o'rtasidagi tafovutni kattalashtirmoqda. Aholining mehnat resurslariga bo'lgan ehtiyojdan ancha ortiqligi zamonaviy ishlab chiqarish va iste'molda qatnashmaydigan aholi qatlamini hosil qilmoqda va bu hodisa soxta urbanizatsiya deb ataladi. Shu tarzda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi urbanizatsiya jarayonining farqi ko'rinadi. Ta'kidlash kerakki, Lotin Amerikasi, Osiyo va Afrikadagi urbanizatsiya o'z xarakteri va jihatlari bilan soxta urbanizatsiyadir. Urbanizatsiya jarayoni barcha mamlakatlarda bir xil xususiyatlarga tayangan holda rivojlanmaydi. Sanoat taraqqiyotining Yevropa qit'asida boshlanganligini hisobga olsak, XX asrda paydo bo'lgan urbanizatsiya kontseptsiyasi bu tushunchani barcha dunyoning mamlakatlari uchun bir xil qo'llanilishiga olib keldi. Lekin shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi turli xalqlarning milliy va etnik xususiyatlari bilan bog'liqligi hisobga olinsa, urbanizatsiyaning rivojlanishi ham turli xalqlar uchun turlicha xususiyat kasb etishiga amin bo'lamiz. Dunyo aholisining zich joylashgan hududlarida shaharlarning miqdor va sifat darajasida o'sishi XX asrda keng avj oldi va urbanizatsiya jarayonini jadallashtirib yubordi. Turli tabiiy sharoitga ega hududlarda o'ziga xos ravishda shaharlarning hududiy kengayish tamoyillari hosil bo'ldi. Urbanizatsiya murakkab hodisa ekanligi tufayli uni faqat bitta mezon ko'rsatgich bilan ifodalash, o'lchash mumkin emas. Ammo shunday bo'lsada barcha uchun qulay bir o'lchov kerak. U ham bo'lsa mamlakat va boshqa hududlar aholisining qanchasi qancha qismi shahar joylarda yashashi ulushi. Masalan, O'zbekiston Respublikasida bu ko'rsatgich 38%, Tojikostonda 32%, Afg'onistonda 19%, Turkmanistonda 48% va h.k. Rivojlangan mamlakatlarda urbanizatsiya koeffisienti 90 va undan ortiq foizni tashkil etadi. Urbanizatsiyaning umumiy ko'rsatgichi bilan mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasi va uni tarkibiy tuzuzlishi orasida ma'lum aloqadorlik bor. CHunonchi, agar urbanizatsiya koeffisienti taxminan 70-75

% va undan ortiq bo'lsa, u holda mamlakat sanoat jihatdan yuksak darajada rivojlangan, milliy iqtisodiyoti industrial – agrar mamalakat hisoblanadi.

Ammo, shuni alohida ta'kidlash joizki, urbanizatsiyaning yuqoridagi ko'rsatgichi hamma vaqt hamma joylarda ham real hududiy – iqtisodiy vaziyatni aks ettirmaydi. Masalan Rossiya federatsiyasining chukotka o'lkasida yoki Kamchatka, Magadan viloyatlarida, o'zimizning Qoraqolpog'istonda urbanizatsiya ko'rsatgichi nisbatan yuqori. Biroq bu hududlar iqtisodiy jihatdan uncha rivojlanmagan. O'zbekiston bilan Turkmanistonni olaylik: Urbanizatsiyaning demografik ko'rsatgichi Turkmanistonda biznikidan ko'ra ancha yuqori. Vaholanki, iqtisodiyotda bunday xulosa chiqarish noto'g'ri bo'lar edi.

Demak, u yoki bu mamalakat urbanizatsiya darajasini boshqa mamlakat bilan qiyoslaganda quyidagilarga etibor berish lozim.

- Shahar tashkil qilish mezonlari (masalan, Turkmanistonda buning uchun 5000 aholi kifoya bo'ladi, O'zbekistonda esa 7000 aholisi mavjud bo'lishi kerak.)
- Shaharlarning umumiy soni va zichligi;
- Yirik shaharlarning mavjudligi;
- Shahar aglomeratsiyalarining rivojlanganligi.
- Qishloq va shaharda mayatniksimon megratsiya;
- Aholining bandlik darajasi va tarkibi;
- Qishloq joylar urbanizatsiyasi;

Bulardan shahar aholisi salmog'i urbanizatsiya darajasini ifodalovchi ko'rsatgich bo'lib u yer sharining barcha hududlarida urbanizatsiya jarayoninig borishini ko'rsatadi. Jumladan urbanizatsiya darajasining ahamiyatli tomonlarini quyidagilarda yaqqol ko'rishimiz mumkun.

1. Urbanizatsiya darajasi 10% bo'lsa bunday hudud urbanizatsiyalashmagan bo'ladi. Qishloq aholi punktlari bilan shahar aholi punktlari orasidagi farq

deyarli bo'lmaydi. Qishloq turmush tarzi aks etadi va shahar aholi soni va shaharliklar hissasi sekinlik bilan ko'payadi.

2. Agarda urbanizatsiya darajasi 25 % dan past bo'lsa, qishloq aholi manzilgohlari seziladi. Hudud kuchsiz urbanizatsiyalashgan hudud hisoblanadi. Oqibqtda shahar aholisi tezlik bilan ko'payadi, ommaviy shahar aholi punktlari paydo bo'la boshlaydi. Shahar va qishloq aholi manzilgohlari orasidagi farq kattalasha boradi.
3. Urbanizatsiya darajasi 50% ga yetsa shahar aholisining qishloq aholisidan ustunligi seziladi. Hudud o'rta urbanizatsiyalashgan hisoblanadi. Shahar aholi soni va o'sish su'rati katta bo'ladi. Shahar aholi manzilgohlari qishloqlardan yaqqol ajralib turadi.
4. Urbanizatsiya darajasi 75% ni tashkil etsa shaharlar qishloqlardan ancha farq qiladi. Shahar turmush tarsi qishloq joylarga ham tarqala boshlaydi. SHahar aholisining hissasi va aholi o'sish su'rati birdan sekinlashadi.
5. Mintaqa, mamlakat, hudud aholisida shahar aholisi hissasi 90% bo'lsa to'liq urbanizatsiyalashgan hisoblanadi. Shahar turmush tarsi barcha qishloq aholi manzilgohlariga tarqala boshlaydi. Qishloq bilan shahar orasidagi farq butunlay yo'qoladi. Aholi soni va salmog'i juida sekinlik bilan ko'payadi. Hatto bazi hollarda kamaya boradi .Yevropa mamlakatlarida bugungi kunda aynan shahar aholisi salmog'ida kamayish hodisasi ro'y bermoqda. Yevropa davlatlari deyarli hammasida shahar aholisi jami aholining 50% dan ko'pini tashkil qiladi (2009 yil) . faqatgina Albaniya, Bosniya va Gertsegovina aholisining 46 % i shahar aholisi hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan yevropa davlatlaridan Daniya (72%), Shvetsiya (84%), Angliya (80%), Germaniya (73%) to'laligicha urbanistik tavsifga ega deyish mumkun.

Yuqoridagilar urbanizatsiyaning naqadar murakkab ijtimoiy iqtisodiy hodisa ekanligidan dalolat beadi. Albatta urbanizatsiya bu obektiv va umuman olganda ijobiy jarayon. Ammo uning salbiy tomonlari ham yo'q emas.

Chunonchi ekologek va sotseal muommolarning keskinlashuvi hozirgi zamon urbanizatsiyasining eng ko'zga ko'rinarli salbiy oqibatidir.

1.2. Zamonaviy urbanizatsiya jarayonining iqtisodiy geografik jihatlari

Butun dunyo mamlakatlarida urbanizatsiyaning rivojlanish tendentsiyasi XIX asrning 2-yarmidan boshlab sanoat taraqqiyotiga mos ravishda shakllangan. Demak, zamonaviy shahar tushunchasi o'sha davrdagi eng rivojlangan davlatlar bo'lgan Yevropa davlatlari shaharlari darajasi bilan belgilanib kelingan. Asta-sekin shaharlarning qiyofasidagi milliy regional xususiyatlar yo'qolib bordi. Aholi punktullarining vujudga kelishida asosiy ta'sirga ega bo'lgan tabiiy geografik omillar ko'p hollarda hisobga olinmaganligi, xususan seysmik aktiv zonalar, shamollar yo'nalishi, yer qatlamlari strukturasi va h.k kabilarni o'rganmasdan shaharlar qurish, shaharlarda tabiiy ofatlardan qurbon bo'lganlar sonining ortiqligi, aholi sog'ligining yomonlashuvi kabi oqibatlarga olib keldi. Zamonaviy shaharlarni barpo qilishdagi bunday xatolar ayni vaqtda ham davom etmoqda. Urbanizatsiyaning shakllanishi uchun kuchli ta'sir ko'rsatgan tabiiy geografik omillar sifatida hududning resurslar zahirasi, rekreatsion hududlarda joylashganligi kabilar tan olanadi. Bunday omillarga suyangan holda shakllangan urbanizatsiya o'ziga xos yo'nalish vaoqibatlarga egadir. Tabiiy resurslar asosida shakllangan urbanizatsiya ushbu resurslarni qayta ishlash va mahsulotlar yaratish jarayonida jadal rivojlanadi, buning natijasida ko'plab ijtimoiy masalalarga e'tibor berilmaydi va turli echimi qiyin bo'lgan muammolar kelib chiqishi mumkin. Rekreatsion hududlarda shakllangan urbanizatsiya esa ko'p hollarda mavsumiy xarakterda rivojlanib boradi va ko'plab ijobiy xususiyatlarni kasb etadi. Uning rivojlanishida vujudga kelgan muammolar esa mahalliy ma'muriyat tomonidan bartaraf etilishi mumkin. Zamonaviy shaharlar muammolarining eng muhimlari shaharliklar va ishlab chiqarish korxonalarini suv bilan ta'sinlash, hamda oqova suvlarni chiqarishdir. Axlatlarni shahar

hududidan olib chiqish va yo‘q qilish ham dolzarb va uzluksiz muammolardir.

SHuningdek, yirik shaharlarning tabiiy muhitga ta’siri ulkan hududlarning gidrologik rejimi, atmosferasi va iqlimi bilan cheklanmasdan binolar va inshootlarning og’irligi bilan litosferaga ham ta’sir ko’rsatib, yer qatlamlari strukturasi o’zgarishiga ham sabab bo’lishi mumkin.

Shaharlarning o’zida alohida mikroiklim hosil bo’ladi. Inshootlar shamollar tezligini pasaytiradi, havoning turib qolishi zaharli sanoat gazlarining to’planishiga olib keladi. Smoglar – tutun, chang va tumanlar aralashmasi quyosh nurini to’sadi va kishilarning turli kasalliklarga chalinishiga sabab bo’ladi. Shaharlardagi havo harorati atrofdagi haroratdan doimo yuqori bo’ladi, bu holat avtomobil yoqilg’isining yonishi, binolarni istish tizimlarining ishi, shahardagi barcha ob’ektlardan qaytgan radiatsiya issiqligining oqibatidir. Mo’tadil kengliklardagi shaharlarda qor ilgariroq eriydi, o’simliklar erta o’sib chiqadi. Shaharlarda qushlar ko’pinchajanubga uchib ketmaydi, shu bilan shaharlarga xos fauna va flora hosil bo’ladi.

1-jadval

Urbanizatsiya jarayoni dinamikasi (% hisobida)

Yillar	Shahar aholisi soni. Mln. K	Shahar aholisi salmog’i, %
1800	50	5,1
1850	80	4,3
1900	220	13,3
1950	738	29,3
2000	2926	47,5
2010	4140	51
2025(bashorat)	5015	61

Urbanizatsiya bir tomondan kishilar yashash tarzini qulayliklar bilan ta'minlaydi, boshqa tomondan tabiiy tizimlarni sun'iy shakli bilan almashtiradi, atrof-muhitning ifloslanishiga sabab bo'ladi, inson organizmiga kimyoviy, fizikaviy va psixologik yuklamani oshiradi.

Yirik shahar deyarli barcha tabiat komponentlarini, atmosfera, o'simlik, tuproq, relef, gidrografik tizim, er osti suvlari, grunt va hatto iqlimni o'zgartirishga qodirdir.

Urbanizatsiyaning dolzarb muammolarini va hududiy shakllanishini va mamlakatlar xo'jaligining hududiy tuzilmalarini takomillashtirishni kompleks iqsodiy geografik tadqiq qilish orqali urbanizatsiya jarayonini barqarorlashtirish yo'lini topish mumkin. Tashqi va ichki migratsiyalar bilan shaharlar soni va ularda mavjud aholi sonining ko'payishi, ya'ni urbanizatsiya jarayoni uzviy bog'liq. Urbanizatsiyaning geografik mohiyatini quyidagi misollarda ifodalash mumkin. Urbanizatsiyalashgan hududlar Yer quruqlik yuzasining 1 foizdan sal ortiq qismini egallagani holda, bu yerda jahon aholisining 48 foiz qismi istiqomat qiladi. Yalpi ichki mahsulotning 80 foizi ishlab chiqariladi. Shu vaqtning o'zida atmosfera va gidrosferaga chiqarilayotgan zaharli chiqindi va gazlarning 80 foizi ham ushbu hududlarga to'g'ri keladi. Urbanizatsiya jarayoni shaharlar soni va shahar aholisining miqdori hamda ulushining o'sishini, shaharlar bilan bog'liq murakkab tarmoqlar va tizimlarning shakllanishi va rivojlanishini anglatadi. Demak, urbanizatsiya inson hayotida shaharlar ahamiyatining beqiyos oshishini, jamiyatni aholining mehnat qilish xususiyati, turmush tarzi va madaniyatini, ishlab chiqarishni joylashtirish bo'yicha shaharlashishni o'zida aks ettiruvchi tarixiy jarayondir. Urbanizatsiya ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Zamonaviy urbanizatsiya umumjahon jarayoni sifatida ko'pchilik mamlakatlarga xos bo'lgan uchta umumiy jihatlar bilan ifodalanadi. Shulardan birinchi jihat kam rivojlangan mamlakatlarda shahar aholisi sonining yuqori sur'atlarda o'sishini bildiradi. Dunyoda 1900-yilda

mavjud jami aholining salkam 14 foizi shaharlarda yashagan. Bu ko'rsatkich 1950-yilda 29 foizni, 1990-yilda 45 foizni, 2004-yilda 48 foizni tashkil etdi.

Ikkinchi jihat — aholi va xo'jalikning, asosan, katta shaharlarda to'planganligi bilan bog'liq. Bunday holat, avvalambor, ishlab chiqarishning xususiyati, uni ilm-fan, ta'lim tizimi bilan bo'lgan aloqadorligi natijasida murakkablashuvi bilan bog'langan. Ma'lumki, katta shaharlar insonlarning ma'naviy va madaniy talablarini to'laroq qondiradi, xilma-xil tovarlar va xizmatlar bilan yaxshiroq ta'minlaydi, mavjud axborot manbalariga yo'l ochib beradi.

Jahonda XX asr boshida aholisining soni 100 mingdan ortiq 150 ta shahar mavjud bo'lib, ularga aholining atigi 5 foizi to'g'ri kelgan. Bunday shaharlarning miqdori 90-yillarning boshida 2,5 mingni tashkil etdi, 2004-yilda esa 3,5 mingdan o'tib ketdi. Ularga tegishli tarzda jami aholining $\frac{1}{3}$ va $\frac{2}{5}$ qismi to'g'ri keldi. Katta shaharlar ichida aholisining soni 1 mln. dan ortiq bo'lgan yirik va juda yirik shaharlarni alohida ajratish qabul qilingan. XX asr boshida bunday shaharlar soni 10 ta bo'lsa, 80-yillarning boshida 200 dan, 2004-yilda esa 400 dan oshib ketdi. Mazkur shaharlar ichida «super shahar»lar miqdori 90-yillarda 30 ni, 2004-yilda esa 60 ni tashkil etdi. Hozirgi vaqtda ushbu shaharlarda salkam 0,5 mlrd. kishiyoki Yer shari aholisining 8 foizidan ortiq qismi istiqomat qilmoqda. Zamonaviy urbanizatsiyaga xos uchinchi jihati shaharlar hududining keskin kengayib, yoyilib ketishi bilan bog'langan. Shaharlar aglomeratsiyalarini o'zagi vazifasini odatda poytaxtlar, boshqa muhim sanoat markazlari va yirik dengiz portlari bajarmoqda. Juda yirik shaharlar aglomeratsiyalari Mexiko, Tokio, San-Paulo, Nyu-York shaharlari atrofida shakllangan. Shularning har birida 13,1 mln. dan 30,2 mln. gacha aholi istiqomat qiladi. Hozirgi vaqtda 2 va undan ortiq aglomeratsiyalar hududining qo'shilib ketishi natijasida urbanizatsiyalashgan rayonlar va zonalar, eng muhimi megalopolislar vujudga kelmoqda. Shularning ichida Tokaydo, Bosvash, Sansan, CHPITS megalopolislari alohida o'rin egallaydi. Urbanizatsiya jarayoni

umumiy xususiyatlaridan tashqari ayrim regionlar va mamlakatlar miqyosida o'ziga xos xususiyatlar bilan ifodalanadi. Urbanizatsiya darajasi bo'yicha jahondagi barcha mamlakatlarni uch yirik guruhga bo'lish mumkin:

1. Yuqori darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar (shahar aholisining ulushi 50 foizdan yuqori).
2. O'rtacha darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar (shahar aholisining ulushi 20 dan 50 foizgacha).
3. Past darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar (shahar aholisining ulushi 20 foizdan kam).

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlar hayotga tatbiq etilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa moddiy mablag'larning yetarli emasligi, mazkur muammolarni to'la-to'kis hal etishga imkon bermayapti.

Urbanizatsiyaning asosiy ko'rsatkichi shaharliklar sonining o'sishi va jami aholi tarkibida shahar aholisi salmog'ining ortib borishidir. XX asrning oxiri va XXI-asrning boshlarida dunyoda shahar turmush tarzining qishloq joylariga tarqalishi, ya'ni Urbanizatsiya jarayoni kuzatilmoqda. Bu esa shahar aholisi salmog'ining ortib borishiga olib kelmoqda. 1950 yilda dunyo aholisining 28,9%i shaharlarda yashagan. 1960 yilda bu ko'rsatkich 33,9% ni, 1970 yilda 37,4%, 1980 yilda 41,1%, 1990 yilda 45,8% va 2000 yilda 51,2% ni tashkil etdi. Shahar aholisining salmog'i rivojlangan mamlakatlarda ancha yuqori (2000 yildada AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Shvetsiyada 75% va Germaniyada 94%, Rossiyada 73% bo'lgan). Osiyo va Afrikadagi rivojlanayotgan mamlakatlarda U. jarayoni dunyoning o'rtacha ko'rsatkichidan ancha past. 2000 yilda shahar aholisining salmog'i Afg'oniston va Efiopiyada 11 - 14% ni, Misr va Turkiyada 45% ni tashkil etdi. Urbanizatsiyaning hozirgi bosqichida katta shaharlarda aholi

konsentratsiyalashuvining o'sishi kuzatilmoqda. Bu jarayonda millioner (1 mln. va undan ortiq aholi yashaydigan) shaharlar alohida o'rin egallaydi. 1900 yilda dunyo bo'yicha millioner shaharlar soni o'nta bo'lgan bo'lsa, XXI - asrga kelib bu ko'rsatkich 200 dan oshdi. Dunyoda aholisi 10 mln.dan ortiq yirik shaharlar Mexiko (25 mln.), Tokio (20 mln.), Seul (13 mln.), Pekin (11 mln.), Parij, Qohira, BuenosAyres va London (10 mln.) mavjud..

1.3 Urbanizatsiya jarayonining ijtimoiy natijalari va oqibatlari.

Zamonaviy shaharlardagi iqtisodiy omillar aynan sanoat vaxalqaro munosabatlarning yuqori darajada rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, xom-ashyolarni qayta ishlash, yangi turdagi mahsulotlarni yaratish, transportning rivojlanishi, demografik rivojlanish kabilardir. Hozirgi zamon urbanizatsiyasining jadal rivojlanishi natijasida quyidagi xarakterdagi muammolar vujudga keladi:

1. Demografik muammo – shaharlarda ishlab chiqarishning rivojlanishi, turli yo'nalishdagi tarmoqlarning shakllanishi shaharga ko'chib keluvchilar miqdorining oshishiga sabab bo'ladi. SHahar aholisi tez ko'paya boradi, shaharga ish izlab kelgan kishilar turar joy muammosini vujudga keltirishadi va shaharning turli hududlarida iqtisodiy jihatdan nochor aholining alohida yashash rayonlari paydo bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlardagi yirik shaharlarda bunday rayonlar shaharlarning asosiy hududlaridan ham yiriklashuvi kuzatiladi. Natijada qashshoq urabnizatsiya deb ataladigan holat yuzaga keladi.

2. Ijtimoiy psixologik muammolar – shahar turmush tarzining bir tomonlama rivojlanib ketishi natijasida shahar aholisining turli qatlamlari vujudga keladi. Turli sohalarda faoliyat ko'rsatuvchi shaharliklarning turmush tarzlarida o'ziga xos tafovutlar vujudga kelishi mumkin. Bu tafovutlar shahar iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotini boshqarishda noto'g'ri yo'l tutilishi oqibatida yuzaga keladi. Bundan tashqari shaharga tashqaridan ko'plab kilshilarning ko'chib kelishi va

noqonuniy joylashish hamda faoliyat ko'rsatish orqali ham shakllanadi. Bunday muammolarning o'tkirligi ayniqsa yirik shaharlarda sezilarli va dolzarbdir.

3.Ekologik xarakterdagi muammolar – Urbanizatsiya jarayoni atrof muhitga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, shaharlarning kattalashuvi, shahar aglomeratsiyalari atrof muhitga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shaharda joylashgan sanoat korxonalaridan hamda transportdan chiqayotgan gazlar atmosfera havosining ifloslanishiga olib keladi. Shaharlarda sanoat korxonalari, communal xo'jaligidan chiqayotgan ishlatilgan suvlar oqar suvlarning ifloslanishiga olib keladi. Iflos suvlar har xil infeksiya kasalliklarini tarqatuvchi bakteriyalarni rivojlanishi uchun asosiy muhit hisoblanadi. Katta shaharlarda korxonalar, transport vositalari shovqini qishloq joylariga nisbatan ancha katta. Bu esa shahar aholisining eshitish organlarini tezda ishdan chiqishiga olib keladi. Shu sababli dunyoda shaharlarning haddan tashqari ko'payib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Urbanizatsiyada shahar aholisining mamlakat aholisiga nisbati bo'lib, mamlakatlar urbanizatsiya darajasini qiyoslaganda mamlakatlar aholisi sonidagi farqlarga ham e'tibor beriladi.

Bu jarayon iqtisodiy – ijtimoiy, demografik, siyosiy, etnomadaniy va geografik tarkibga ega bo'lgan bu hodisa jamiyatning hududiy tashkil etilishidagi o'zgarishlarni o'zida namoyon etadi. Shu bilan birga ijtimoiy mehnat taqsimotining hududiy-geografik taqsimoti hosilasi sifatida talqin qilinadi. XX asr boshdanoq yirik shaharlar salmog'ining jadal o'sishi bu borada tadqiqotlar va bashoratlar qilinishiga sabab bo'lgan. A Babel yirik shaharlar bora-bora inqirozga uchrashini aytgan, G. Uels ularning kelajakda butunlay yo'q bo'lib ketilishini bashorat qilgan edi. Mana 100 yildirki urbanizatsiya jarayoni jadal o'sib bormoqda, borgan sari katta hududlarni egallamoqda va shu bilan birga bu jarayon ibtidosidagidek uning yo'lida turli muammolar kelib chiqmoqda. Bunday muammolar:

1. Rivojlanayotgan davlatlarda urbanizatsiya juda tezkor va boshqarib bo'lmaydigan xarakter kasb etmoqda;
2. Shaharlarning juda tez kattalashuvi, shunday shaharlarda aholining turmush darajasi past qismi yashaydigan alohida hududlarni vujudga keltiradi. Bunday hududlar antisanitariya sharoitini yuzaga keltiradi. Bunday hududlar frantsuz tilida so'zlashuvchi Afrika davlatlarida "bidonvillar", Braziliyada "favel", Turkiyada "gedjekondu" deb ataladi.
3. Sanoat korxonalari va avtomobillarning ko'pligi yirik shaharlarda ekologik vaziyatni keskinlashtiradi;
4. Kelajakda shaharlarni ko'p funktsiyali holatga keltirish zarurati tug'iladi. Urbanizatsiya jarayonining tabiiy muhitga ta'siri alohida ahamiyatga egadir. Shaharlar aholi sonining ko'pligi, sanoat korxonalari, transport tizimining rivojlanganligi jihatidan qaralganda tabiiy resurslarning barcha turlarini iste'mol qiluvchi ob'ektlardir va shu bilan atrof-muhitning ifloslanishida katta o'rin tutadi. Tabiiy muhitga bo'lgan yuklama nafaqat shaharlarning o'zida, balki uning atroflarida ham kuchaya boradi.

Shahar hududining kengayishi qimmatli ekin maydonlarining qisqarishiga va shu bilan oziq-ovqat muammosining chuqurlashuviga sabab bo'ladi.

Sahroi Kabir janubdagi qator Afrika davlatlaridagi shaharlar o'nlab kilometr hosilsiz yerlar bilan o'ralgan. "Bedlend" deb ataluvchi bu hududlar shahar aholisi tomonidan daraxtlarning o'tin uchun kesib olinishi va yaylovlarda chorvachilik bilan shug'ullanishi oqibatidir. Yirik shaharlar oziq-ovqat mahsulotlariga uzluksiz ehtiyoj sezadi va ba'zi hududlarda ular atrofidagi qishloq xo'jalik maydonlari bu ehtiyojlarni qondira olmaydi.

Shaharlarning rivojlanish jarayonida tabiatga uzviy ta'sir etishi oqibatida uning turli komponentlari o'rtasidagi muvozanat buzilishi, oqar suvlar va atmosfera xaddan tashqari ifloslanib ketishi, eryoziya jarayoni kuchayishi, flora va fauna kambag'allashib kamayib ketishi mumkin.

Bunday jarayonlarni maishiy sanoatlarning yirik shaharlari va

aglomeratsiyalarida ko'rsa bo'ladi. Sanoat korxonalari va avtomobil transporti, atmosfera va oqar suvlarni ifloslantiruvchi asosiy manbalardir. Dunyoning eng yirik shaharlari bo'lgan Nyu-York, Tokio, Parij, London osmonida sanoat va avtotransport iflosliklaridan iborat sun'iy bulutni har doim ko'rish mumkin. Birgina Nye-York shahrida ham har kuni atmosferaga 3200 t, oltingugut birikmalari 280 t, sanoat changi 4200 t, uglirod ko'tariladi. Sotsialistik mamlakatlardagi ografik muhitning bunday buzilishi va ifloslanishiga yo'l qo'yilmaydi. Eng yirik shaharlarimizda ham atmosfera ancha toza. Hozirgi zamon urbanizatsiyasi jarayoni gilobal harakterga ega bo'lib deyarli butun dunyoni qamrab olgan. Urbanizatsiya o'ziga xos shahar hayot tarzini vujudga keltiradi. Buning esa kishilarning o'zaro aloqalari uchun qulay vaziyat yaratadi, aholining professional tarkibini, sotsial harakatchanligi tamoman o'zgartiradi. Urbanizatsiya jarayoni yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalarida urbanizatsiyalashgan muhitni vujudga keltiradi. Yuqori darajada urbanizatsiyalashgan muhit aholining hayoti, mehnat va dam olish jarayonida vujudga keladigan deyarli barcha talablarni qondira oladi. Hozirgi zamon urbanizatsiyasi fan – texnika inqilobi bilan chambarschas bog'liq holda rivojlanmoqda. Fan – texnika inqilobi sanoatning hududiy kontsentratsiyasiga sanoatning ayrim qisimlarida emas, balki katta areallarda joylashuviga aglomeratsion jarayonning kengaytirishga sababchi bo'lmoqda.

Urbanizatsiyaning yanada kuchayishiga ta'sir etayotgan muhim omillardan biri – hozirgi zamoning juda tez taraqqiy etayotgan ishlab chiqarish va sotsialin fra - strukturasidir. Hozirgi zamon urbanizatsiya jarayonining ko'p qirraligi, turli sotsial – iqtisodiy tuzumga ega bo'lgan mamlakatlarda bir – biridan farq qilish urbanizatsiyani tiplarcha ajratishni taqozo qiladi.

1) Induotrial tip.

2) Kompiens tip.

3) “Soxta” Urbanizatsiya tip.

Xizmat darajasining haddan tashqari rivojlanishi.

Dunyo urbanizatsiya jarayoni, asosan 1 chi tip va 2 chi tiplarga to'g'ri keladi. Urbanizatsiyaning 3 chi tipi soxta urbanizatsiya rivojlanayotgan mamlakatlarga xos. Urbanizatsiyaning 1 chi tipi ayrim rivojlangan kapitalistik mamlakatlarga xosdir.

Urbanizatsiyani mamlakat xo'jaligining hududiy strukturasi bilan bog'lab geografik jihatdan o'rganish yaxshi natijalarni beradi. Urbanistik struktura aholining soni turlicha bo'lgan shaharlarning nisbatan yirik shaharlar aholisining barcha shahar aholisidagi salmog'i kasbi ko'rsatkichlardan iborat. Hududiy urbanistik struktura mamlakat turmush qisimlarining yirik shaharlar bilan ta'minlanganlik darajasi turli xil urbanizatsiya darajasiga ega bo'lgan hududlarning bir – biriga nisbatan joylashuvi bu yerda muhim ahamiyatga ega.

BMT bergan ma'lumotlarga ko'ra 2030 yilda dunyo aholisining 60 % 1 shaharlarda yashaydi. Bunday shahar aholisining o'sishi faqat tabiiy ko'payish hisobiga to'g'ri keladi. 2000 – 2030 yillar orasida yiliga 1.8 % dan ortib boradi, bu global o'sishdan ikki marta ko'p degani. SHuningdek bugungi kunda dunyoning 20 ta shahrida 10 million kishi istiqom qilmoqda (15 tasi rivojlanayotgan davlatlar hissasiga to'g'ri keladi). Bu jahon aholisining 4% ga teng demakdir. Aholi o'ta zich joylashgan hududda turli xil sanoat korxonalari va transport tizimining yuqori darajada mujassamlashuvi va hatto shahar ko'chalari va binolarining qurilish holati uning mikroiqlimiy ko'rsatkichlariga ta'sir etadi. Bunday sotsial muhitda oila munosabatlari, qarindosh- urug'chilik milliy urf – odatlar o'ziga xos mazmun kasb etadi va ayni vaqtda o'ziga xos kasalliklarning vujudga kelishi va tarqalish imkoniyatlari kengayadi. Albatta shaharlar rivojlanishisiz jamiyat mamlakat va mintaqalar taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin. Chunki shaharlar hozirgi kunda mamlakat va boshqa hududlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy rivojlanishini harakatga keltiruvchi asosiy kuchdir. Shaharlarda turli xil hodisalarning yuqori

darajada hududiy mujassamlashuvi ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham ularning ijtimoiy ishlab chiqarish, investitsiya va innovatsiya salohiyati yuksak darajada, ayni vaqtda davlatlarning milliy poytaxtlari va ularning nomlari orqali xalqaro aloqalarda rasmiy ishtirok etishi, jaxon xamjamiyati, geosiyosiy tizimidagi ishtirokini aks ettiradi.

Hozirgi zamon urbanizatsiyasi butun jahon jarayoni qiyofasida ko'pchilik mamalakatlar uchun xarakterli bo'lgan uchta asosiy umumiy belgi bilan xarakterlidir.

- ✓ **Birinchii belgi.** Shahar aholisining jadal suratda o'sishi. XX asr davomida jahonda shaharliklar soni 13 marta ko'paydi. Faqat 1950 – 1970 yillarda u 80 % dan ko'proqqa oshdi. 1970 – 1990 yillarda esa salkam 70 % ga o'sdi. Hozirgi kunda shaharlar aholisi qishloqlarni mamuriy jihatdan shaharlarga aylantirishni, qishloqdan shaharga ommaviy megratsiyaning kuchayishi tufayli qishloqqa qaraganda 3 marta tez o'smoqda. Bu jarayon XXI asrning birinchi yarmida ham saqlanib qolishi kerak. Taxminlarga ko'ra 2025 yilga borib shaharlar aholisi 5 mlrd ga yetadi va jahon aholidagi ulushi 60 % ga ko'tariladi.
- ✓ **Ikkinchi belgi-** SHahar aholisining to'planishi davom etmoqda, eng avvalo katta shaharlarda bu ishlab chiqarish xakteri uning fan ta'lim, ishlab chiqarish sohalari bilan aloqasi murakkablashuvida namoyon bo'ladi. Katta shaharlar odatda odamlarning manaviy extiyojini qondiradi. Turli xil tovarlar va xizmatlar mo'lligi bilan yaxshi ta'minlaydi. Axborot olish imkoniyatlarini kengatiradi. XX asr boshlarida dunyoda butun shaharlar aholisining 5% I yashayotgan 360 ta katta shaharlar sanalgan. 1950 yilga kelib shaharlar soni 960 taga yetdi aholisi 36 % ni tashkil etdi. 1990 yilda shaharlar 3500 ta bo'ldi, aholisi soni 68 % ga yetdi. Katta shaharlar orasida millioner shaharlar alohida ajralib turadi va ularning soni ham ko'paymoqda. 2005 yilda jahonda millioner shaharlar 430 tadan ortdi va ularning aholisi 1.3 mlrd kishiga yetdi.


- ✓ **Uchinchi belgisi-** shaharlarning siljishi yani ular hududlarining kengayishi urbanizatsiyaning hozirgi bosqichi uchun aniq nuqtada joylashgan shaharlarni shahar aglomeratsiyalariga qo'shilib keng shahar guruhlariga ko'chishi, ko'p qirrali birlashgan intensive ishlab chiqarish, mehnat va madaniy aloqalari xarakterlidir.

2-Bob. Urbanizatsiya jarayoni rivojlanishining mintaqaviy tafovutlari.

2.1. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarga xos urbanizatsiya jarayoni, xususiyatlari.

Urbanizatsiya jarayoni dunyoda xo'jalik tizimining va ishlab chiqarish munosabatlarining o'zgarishi bilan jadalashdi. Ishlab chiqarishning kontsentratsiyalashuvi, differentsiatsiyalashuvi, hududiy tashkil etilishi va texnologik taraqqiyot bu jarayonga turkati beruvchi asosiy omillardir. Urbanizatsiya jarayoni shahar aholisining miqdoriy o'sishi bilan xarakterli bo'lib, bu holat XX asrgacha ancha sust va barqarorligi bilan ajralib turadi. 19-asr boshida dunyo shahar aholisi 29,3 mln kishini tashkil etgan, bu dunyo aholisining 3% ni tashkil etardi. 1900 yilga kelib bu ko'rsatkich 224,4 mln kishini va 14% ni tashkil etdi. XX asr davomida jarayonning o'sishi quyidagi raqamlarda aks etadi. 1950 yilda shahar aholisi 729 mln kishi, muvofiq ravishda 28,8%, 1980 yilda 1821 mln kishi va 41% ni, 1990 yilda 2261 mln kishi va 41% ni tashkil etdi.

1-diagramma



Urbanizatsiya jarayonining umumiy xususiyatlari barcha mamlakatlarda birday namoyon bo‘ladi. Bu:


- Shahar aholisining tez ko‘payishi. Bu ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda sezilari bo‘ladi, chunki bu mamlakatlarda aholining qishloqdan shaharga ko‘chib kelishi nazorat qilinmaydi. 1950 yildan buyon dunyoda shahar aholisi 4.37 marta ko‘paydi.
- Aholi vaxo‘jalik tarmoqlarining yirik shaharlarda to‘planishi, bunda shaharlarning ko‘p funksiyali ekanligi, ayniqsa noishlab chiqarish

sohalarining rivojlanishiga imkoniyatning kengligi va rivojlangan infrastrukturaga, axborot almashinuvining tezligi sabab bo‘ladi. Hozirgi kunda 30 dan ortiq shaharlarda 5 mln dan ko‘p aholi yashaydi.

-

Shaharlar hududining kengayishi. Bu yirik shaharlar atrofida yo‘ldosh shaharlarning paydobo‘lishi bilan kechadi. Bunday ko‘rinish shahar aglomeratsiyalari deyiladi. Dunyodagi eng yirik shahar aglomeratsiyalari Mexiko, Nyu-York, Tokiova San-Paulu shaharlari atrofida shakllangan.

3-diagramma




Urbanizatsiya shartli darajalari quyidagicha qabul qilingan:

- Urbanizatsiyaning past darajasi -20%
- Urbanizatsiyaning oʻrtacha darajasi -20% dan 50% gacha
- Urbanizatsiyaning yuqori darajasi – 50% dn 72% gacha
- Urbanizatsiyaning yuksak darajasi - 72% dan yuqori.

1-karta

Jahon mamlakatlarida urbanizatsiya darajasi kartasi



Dunyodagi eng past urbanizatsiya darajasi Gʻarbiy va SHarqiy Afrika, Madagaskar va baʼzi Osiyo mamlakatlarida kuzatiladi.

O‘rtacha urbanizatsiyalashgan mintaqalar Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasidagi Boliviya davlati. Yuqori urbanizatsiyalashgan mintaqalar MDH, Evropa, Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Avstraliya va JAR hududlaridir.

Yer yuzida 107 ta millioner shahar bor. Ba’zi manbalarda esa ularning soni 300 dan ortiq deb ko‘rsatiladi. Lekin bu hisobda shahar atrofidagi aholi ham nazarda tutiladi. Aslida shahar aholisining miqdori ayni shahar yuridik hududida yashovchilar bilan chegaralanishi lozim. Shunga ko‘ra 107 ta millioner shahar mavjudligi ma’lumot sifatida qabul qilindi. Ularning 28 tasi g‘arbiy yarim sharda, 79 tasi sharqiy yarim sharda, 96 tasi shimoliy yarim sharda, 11 tasi janubiy yarim sharda joylashgan. 36 ta millioner shahar poytaxt maqomiga ega.

Urbanizatsiya jarayonining Mintaqaviy tafovvutlari

Mintaqalar	Urbanizatsiya darajasi, %		
	1950 yil	2000 yil	2010 yil
Dunyo buyicha	29	47,5	51
Rivojlangan davlatlar	55	71	75
Rivojlanayotgan davlatlar	17	41	46

Urbanizatsiya jarayonining hududiy taqsimoti hozirgi kunda juda rang-barangdir. Dunyo urbanizatsiya xaritasida uchta asosiy mintaqa alohida ajralib turadi. Bular AQSH, Yaponiya va G‘arbiy Evropadir. Bu mintaqalarni uzluksiz joylashgan aholisi 1 milliondan ortiq yirik aholi punktlari to‘ldirib turadi. So‘ngi 20 yil davomida dunyodagi bu manzarani Sharqiy, va Janubiy Osiyodagi yirik shahar aglomeratsiyalarining paydo bo‘lishi o‘zgartirmoqda. SHuningdek Lotin Amerikasi va Afrika mintaqalarida ham yirik shaharlar ko‘payib bormoqda. Bu shahar aholisining ko‘payishi bilan izohlanadi.

Dunyo shahar aholisining yarmiga yaqini Osiyoda istiqomat qiladi (1950 yilda 1/3 qismi edi), 20% dan ortig'i Evropada yashaydi. XXI asrostonasida jahon urbanizatsiya jarayoni janubi-sharqiy Osiyo yo'nalishida kuchaya boshladi. Bu XX asrning ikkinchi yarmida Yaponiya, Xitoy, Hindiston va qator sharqiy va janubiy Osiyo mamlakatlarida shaharlar miqdorining ko'payishi bilan izohlanadi.

Urbanizatsiya jarayoni hozirgi kunda shahar aholisining juda tezlik bilan ko'payib borishida namoyon bo'lmoqda. BMT mutaxassislari aholisi 8 mln ortgan shaharlarni megashaharlar (mega-yunon tilida ulkan degan ma'noni beradi). 1950 yilda bunday shaharlar sirasiga faqat London va Nyu-York kirgan bo'lsa, 1960 yilda ular safiga Tokio va SHanxay shaharlari qo'shildi, 1970 yilda ularning soni 11 taga etdi ulardan 5 tasi rivojlanayotgan mamlakatlarda (Pekin, San-paulu, Buenos Ayres, Rio-de Janeyro) edi, 1994 yil o'rtalarida 22 ta megashahardan 16 tasi rivojlanayotgan davlatlar hududida shakllandi, 2015 yilda 33 taga etishi taxmin qilinadi, shu bilan birga ulardan 27 tasi rivojlanayotgan davlalarda bo'lishi, shundan 21 tasi Osiyo qit'asiga tegishli bo'lishi taxmin qilinadi. Hozirgi kunda 30 dan ortiq shaharlarning aholisi 5 mln dan ko'p ekanligi qayd qilindi.


Urbanizatsiyaning ikkinchi bosqichida aglomeratsiya va megalopolislarning shakllanishi, hamda ishlab chiqarish jarayoniga alohida ta'sir ko'rsata boshlashi ta'kidlangan. Aglomeratsiya va megalopolislar iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishning mahsuli sifatida namoyon bo'ladi va urbanizatsiyaning yangi bosqichiga yo'l ochadi. Aglomeratsiya – lotincha «aglomerat» to'planish degan ma'noni bildiradi va shahar aholi punktlarida ishlab chiqarish vositalari, ya'ni korxonalar, shuningdek mehnat resurslarining taqsimoti jarayonida shakllanadi.

Aglomeratsiyalar mamlakatlarning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining bir mezon sifatida qaraladi. Aglomeratsiya uchun sanoat va boshqa ishlab chiqarish sohalarining yuksak darajada kontsentratsiyalashishi va shu munosabat bilan malakali kadrlar, ilmiy hamda o'quv muassasalari ob'ektlarining to'planishi,

injenerlik va kommunikatsiya tizimlarining umumiyliigi, aholining o‘ta zichliigi va boshqa xususiyatlar xarakterlidir. Aglomeratsiyalar rivojlangan urbanizatsiya bosqichining yuqori darajasi bo‘lib, uning mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida ahamiyati nihoyatda yuqoridir. Aglomeratsiyalar shakllanishida ikki xil tip ajratiladi: Monotsentrik – bunda aglomeratsiyalar bitta yirik shahar atrofida yo‘ldosh shaharlarning paydobo‘lishi va ular o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikning rivojlanishi kuzatiladi. Politsentrik – aglomeratsiya hosil bo‘lishida markaziy o‘rinni bir-biriga teng bo‘lgan bir necha shahar egallaydi.


1-chizma

Aglomeratsiyaning ko‘rinishlari



Monotsentrik

Politsentrik



Maydonning kengayishi va aholi sonining ortib borishi hisobiga yuzaga keladigan iqtisodiy yutuq to'ishlab chiqarish va transport xarajatlarining bir-biriga mos kelishi chegarasigacha saqlanib qoladi. Aglomeratsiyalarda bir qancha muammolar, xususan ekologik muammolarning o'tkirlashuvi hisobiga aglomeratsiya aholisining shahar chetlariga ko'chib o'tishi kuchayib boradi. Bu suburbanizatsiya hodisasi ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Suburbanizatsiya turli omillar natijasida kuchayib aglomeratsiyalar chegarasining bir-biriga yaqinlashib borishiga va qo'shib ketishiga sabab bo'ladi. AQSH da aniq kuzatiladigan bu hodisa megalopolislarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Megalopolis so'zi qadimgi Yunonistondagi shahar davlatlari ichida yuksak rivojlanishga ega bo'lgan Megapolis shahri nomidan olingan bo'lib, hozirda ulkan shahar ma'nosida ishlatiladi. Bir so'z bilan aytganda Megapolis aglomeratsiyalar aglomeratsiyasidir. Shunday qilib, aglomeratsiyalarning shakllanishiga birinchi navbatda shaharlarning hududiy o'sib, borishi sabab bo'ladi. Shaharlarning hududiy o'sishi esa o'z navbatida bir qancha iqtisodiy ijtimoiy va tabiiy omillarga egadir. Bu omillar mamlakatda mavjud resurslardan foydalanish, aholining

migratsion harakati, tabiiy o'sishi, iqtisodiy inqiroz yoki yuksalish kabi hodisalarga bog'liq ravishda aglomeratsiyalarning shakllanishiga turli darajada ta'sir ko'rsatadi. Har holda shahar aglomeratsiyalarining tashkil topishida bir qancha shartlar bor. Ushbu shartlar amalga oshgan taqdirda aglomeratsiyalar rivojlanish salohiyatiga ega bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, shahar aglomeratsiyalari monotsentrik hamda politsentrik shakllanish xususiyatiga egadir. Monotsentrik aglomeratsiyalar aksariyat hollarda qadimgi shaharlar yoki poytaxt shaharlar negizida vujudga keladi. Muayyan hududda asrlar davomida rivojlanib kelgan shahar ushbu hudud uchun qadimiy markaziy o'ringa ega bo'ladi va bu o'rin, hududning iqtisodiy taraqqiyoti davomida yangi tarmoqlarning vujudga kelishi barobarida yanada ahamiyatliroq bo'lib boraveradi.

Turli sharoit va tabiiy resurslar salohiyatiga ega hududlarda shakllanadigan aholi punktlarining umumiy xususiyati ularda aholi turmush tarzi va xo'jalik faoliyatining shakllanishidir. Binobarin, aholi punktlarining tasniflanishi har qanday sharoitda aholi soni vaxo'jalik yuritish tarziga asoslanib o'tkaziladi. Xususan, jamiyat taraqqiyotining texnologik darajasi yuqori o'ringa chiqqan hozirgi kunda aholi punktlarining mamlakatlar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishidagi ahamiyati eng muhim o'rinda ko'riladi. Har qanday tabiiy sharoitga ega hududlarda aholi punktlarini yuqori darajada texnologiyalar bilan ta'minlangan, aholi yashashi uchun barcha qulayliklari mavjud joyga aylantirish mumkin. Lekin ta'kidlash joizki bunday shahar yoki boshqa ko'rinishdagi aholi punktini bunyod qilishda ham tabiiy sharoit omili albatta hisobga olinadi. Shunga ko'ra ilm-fan taraqqiyoti qanchalik yutuqlarga erishib, kishilarning yashash huuddlarini qanchalik noqulay sharoitli hududlargacha etkazishga imkon bersada, aholi doimiy yashaydigan joyni bunyod qilishda tabiiy sharoit omili e'tiborga olinishi kerak bo'lgan birinchi omil bo'lib qolaveradi.

Megashaharlar sonining ko‘payishi, (1970-2015 yy)

yillar mintaqalar	1970	1994	2000	2015(bashorat)
Dunyo bo'yicha	11	22	25	33
Rivojlanayotgan davlatlar	5	16	19	27
Osiyo (Yaponiyadan tashqari)	2	10	12	19
Lotin Amerikasi	3	4	5	5
Rivojlangan davlatlar	6	6	6	6
Evropa	2	2	2	2
Shimoliy Amerika	2	2	2	2
Yaponiya	2	2	2	2

Yuksak rivojlangan davlatlarda o‘ziga xos yuqori urbanizatsiyalashgan mintaqalar shakllandi. Masalan Tokio-Osaka oralig’ida 130 ta shahar joylashgan va mamlakat hududining 1/9 qismini egallaydi. Bu hududda mamlakat aholisining deyarli yarmi 60 mln kishi yashaydi. Ishlab chiqarishning 4/5 qismi shu hududda joylashgan va Yaponiya yalpi ichki mahsulotining 90% i ishlab chiqariladi. Yuqori urbanizatsiyalashgan, shahar aholisining ulushi 80% dan ortiq bo‘lgan mamlakatlar ichida Evropada – Buyuk Britaniya, SHvetsiya, Germaniya, Daniya, Frantsiya, Niderlandiya; SHimoliy Amerikada AQSH va Kanada; Avstraliya va Okeaniyada Avstraliya

va Yangi Zelandiya; Osiyoda Yaponiya va Isroil ajralib turadi. Iqtisodiy rivojlangan mintaqalarda shahar aholisi ulushining 70% dan ortiqligi Evropa, SHimoliy Amerika va Avstraliya kuzatiladi, bu mintaqalarda shaharlar zamonaviy ishlab chiqarish markazlari sifatida rivojlangan. SHahar aholisi bu hududlarda XXasr boshida ko'paya boshlagan. So'nggi 30 yil davomida bu mintaqalarning dunyo bo'yicha shahar aholisidagi ulushi 45% dan 26% ga kamaydi. Ayni vaqtda boshqa hududlarda shaharliklar soni 400 mln.dan 1.6 mlrd kishiga oshdi. So'nggi 10 yilliklarda iqtisodiy rivojlangan mintaqalarda o'ziga xos kontrurbanizatsiya (teskari urbanizatsiya) jarayoni – aholining yirik shaharlardan chetga ko'chishi kuzatilmoqda.

Lotin Amerikasida 65% dan ortiq aholi shaharlarda yashaydi, Mexikova San-Paulu kabi dunyodagi eng yirik aglomeratsiyalar mavjud. Urbanizatsiya jadalligi shahar aholisining ulushi nisbatan kam bo'lgan mintaqalarda kuzatilmoqda. Osiyo qit'asining urbanizatsiya darajasi 34% ni tashkil etadi. Bu mintaaqda urbanizatsiya jarayoni juda tez kechmoqda, shunday bo'lsada, bu mintaqadagi shahar aholisining ulushi 29% ni tashkil etadi. SHarqiy Osiyo mamlakatlari – YAponiya, Tayvan, KXDR va Koreya Respublikalarida shahar aholisining ulushi 70% dan ortiq. Xitoyda shahar aholisining ulushi 32% ni tashkil etadi, mamlakata migratsiya juda qat'iy nazorat qilinadi. Urbanizatsiyaning eng past darajasi va eng yuqori jadalligi Afrika qit'asida namoyon bo'lmoqda.

Urbanizatsiyaning Osiyomintaqasidagi asosiy jihati aholisi 5 mln dan ortiq yirik shaharaglomeratsiyalarining shakllanishida namoyon bo'ladi. O'nlab yirik shaharlarning qo'shni joylashganligi va ularning kengayishi natijasida bir-biriga qo'shilib borishi, bu holat ayniqsa yirik avtova temir yo'l

magistrallari atrofida joylashgan shaharlarda kuzatiladi, cho‘ziq shakldagi urbanizatsiyalashgan hududning shakllanishiga sabab bo‘ladi. 1950 yillarda J. Gotmann AQSH da shunday hodisani Atlantika okeani qirg‘oqbo‘yida tadqiq qildi. Bu hududning uzunligi 1000 km, eni 200 km bo‘lib, bir-biriga qo‘shilib borayotgan aglomeratsiyalar – Boston, Nyu-York, Filadelfiya, Baltimor, Vashington va yana 40 ta aglomeratsiyadan tashkil topgan edi. Uning maydoni 170 ming km². J. Gotmann bu hududga Megalopolis (Megapol – qadimgi Yunonistondagi shahar davlatlar ittifoqidagi eng yirik shahar nomi) deb nom berdi va bu nom keyinchalik turdosh otga aylandi. 1961 yilda J. Gotmann “Megalopolis” deb atalgan monografiyasini chop ettirdi. Bu hududda 50 mln dan ortiq aholi yashaydi va sanoat mahsulotlarining ¼ qismi ishlab chiqariladi. SHu tariqa AQSH hududida bir qancha megalopolislarning shakllanganligi ta’kidlandi. CHikago-Pittsburg Buyuk ko‘llarning janubiy qirg‘oqbo‘yida shakllandi. CHikago, Detroyt, Klivlend, Pittsburg shaharlarini va 35 ta shaharni birlashtiruvchi bu hududning maydoni 160 ming km²ni, aholi soni 35 mln dan ortiqni tashkil etadi. Eng yosh megalopolis San-San, San-Diegodan Ulkan Kaliforniya vodiysi bo‘ylab Los-Anjelesgacha va undan San-Frantsiskogacha cho‘zilgan, unda 20 mln dan ortiq kishi istiqomat qiladi.

Kanadada aholi joylashuvining muhim zvenosini Kvebekdan Vindzorgacha cho‘zilgan urbanizatsiyalashgan zona yoki o‘q tashkil etadi. Uning uzunligi 1000 km dan ortiq bo‘lib, eni 300 km, uning hududida mamlakat aholisining 55% yashaydi, sanoat tarmoqlarida band mehnat resurslarining 73% to‘plangan.

Urbanizatsiya jarayonining rivojlanish bosqichlari

№	Bosqichlarning nomi	<u>Urbanizatsiya jarayonining rivojlanish xususiyatlari</u>		
		Miqdoriy	Sifatiy	Xududiy
II I.	Rivojlangan urbanizatsiya	$\frac{3}{4}$ va yuqori	7. – zamonaviy urbanizatsiya, 6. – rururbanizatsiya, 5. – suburbanizatsiya	Shaharaholima nzilgohlari шаклланган tizimlariningpa ydo bo'lishi.
II .	Rivojlanayotgan urbanizatsiya	$\frac{1}{2} - \frac{3}{4}$	4. – Shahar aglomeratsiyalari va megapolislari, 3. – millioner shaharlarning tez suratda o'sishi.	Shahar aholi manzilgohlari tarmoqlarining paydo bo'lishi
I.	Shaklannayotgan urbanizatsiya	$\frac{1}{2}$ gacha	2. – yirikshaharlarningo'si shi, 1. – shaharlarningko'pmi qdordapaydo bo'lishiv a rivojlanishi.	Bazi yirik shaharlarning dominion xususiyatga ega ekanligi.

Aholi soni bo'yicha eng katta megalopolis Tokaydo (70 mln dan ortiq kishi) Yaponiyaning Tinch okean qirg'oqbo'yida shakllangan. Bu yuqori darajada

urbanizatsiyalashgan hudud bir necha 100 km ga cho'zilgan va Tokio, Iokogama, Kawasaki, Nagoya, Kioto, Osaka, Kobe va boshqa hammasi bo'lib 25 ta shaharlarni birlashtirgan hududda mamlakat aholisining 60% dan ortig'i yashaydi va sanoat mahsulotlarining 2/3 qismi ishlab chiqariladi. Megalopolislar G'arbiy Yevropada ham shakllanmoqda. Ular AQSH yoki Yaponiyadagi megalopolislardan ko'lami, ahol soni va maydoni jihatidan kichik. Maydoni jihatidan London, Birmingem, Manchester, Liverpul va boshqa shaharlarni birlashtiruvchi Angliya megalopolisi, Reyn (Niderlandiyadagi Ranstadt, GFR dagi Reyn-Rur, Reyn-Mayn va boshqa aglomeratsiyalarni birlashtiradi) megalopolislari ajralib turadi. Ularning har biri 30 tagacha aglomeratsiyalarni birlashtiradi va maydoni 50 ming km², aholi soni 30-35 mln kishi ni tashkil etadi. Megalopolislarning shakllanishi bu mintaqada yirik aglomeratsiyalarning rivojlanishi bilan bog'liq. London aglomeratsiyasining aholisi 12 mln kishin, Parijniki 10 mln kshi, Quyi Reyn-Rur aglomeratsiyasining aholi soni 11 mln kishini tashkil etadi. Mamlakatlararo megalopolislarning shakllanishi qiziqarli hoisadir. SHimoli-G'arbiy Yevropada shunday megalopolis shakllangan. Bu megalopolis 5 ta mamlakatning urbanizatsiyalashgan, maydoni 230 ming km², aholisi 85 mln kishi, aholi zichligi 350 kishini tashkil etuvchi hududini birlashtiradi. Bu hududlar SHimoli-SHarqiy Angliya, Ranstatd, Reyn-Rur, belgiya-frantsiya hududi (Antverpen, Bryussel, Lill shaharlari) va Parijni qamrab oladi.

Ayni vaqtda jahon mintaqalarida va mamlakatlarida urbanizatsiya turli darajaga egadir. Evropa mamlakatlarida urbanizatsiyaning past darajasi umuman kuzatilmaydi. Urbanizatsiyaning eng yuqori darajasi asosan mitti davlatlarga tegishli bo'lib, 90% lik ko'rsatkichga ega katta maydonga ega davlatlardan Belgiya va Buyuk Britaniyani ko'rsatish mumkin. Mitti davlatlarning o'ziga xosligini hisobga olinganda, Belgiya qirolligi qit'adagi eng yuqori urbanizatsiya darajasiga ega mamlakatdir 98%, Buyuk Britaniya va Niderlandiyada bu ko'rsatkich 90%, ulardan keyingi o'rinlarda Daniya 85%, SHvetsiya 83%,

Germaniya 88% ni tashkil etadi. Eng past urbanizatsiya darajasi Moldovada 42%ni tashkil etadi.

4-jadval

Jahondagi eng yirik aglomeratsiyalar

№	Aglomeratsiya nomi	Maydoni kv. km.	Aholisi mln. K	Zichligi
1	Tokio-Iokogama	8677	37,7	4340
2	Mexiko	1346	23,6	3212
3	Nyu-York	11264	23,3	2070
4	Seul	1943	22,7	11680
5	Mumbay	2350	21,9	9320
6	San-Paulu	7944	20,8	2620
7	Manila	4863	20,7	4256
8	Jakarta	7297	19,2	2631
9	Dehli	1425	18,9	13265
10	SHanxay	7037	18,6	2645


Osiyo qit'asida eng yuqori urbanizatsiya ko'rsatkichlari Quvayt 96%, Bahrayn, Qatar 93%, Isroil 92%, Livan 91% va Singapur 100% larda qayd etilgan. Eng past ko'rsatkich Butan, SHarqiy Timorda 8%, Nepal 13% ni tashkil etadi.

Afrika mintaqasida eng yuqori ko'rsatkich Liviyada 88% bo'lsa Ruanda eng past ko'rsatkich 7% ga ega.

Amerika qit'asida eng yuqori ko'rsatkichlar Urugvay (93%), Argentina va Venesuela (88%) ga tegishli, eng past ko'rsatkich Gaiti, Gayana kabi (38%) davlatlarga tegishli.

Avstraliya qit'asida Avstraliya (92%) va Yangi Zelandiyada (86%) eng yuqori ko'rsatkichlar bo'lgani holda boshqa davlatlar deyarli urbanizatsiyalashmagan.

4-rasm



Jaxonning eng yirik Megapolislari



SHimoliy Amerikada joylashgan Megapolislar

AQSH

- **SHimoliy-sharqiy - Bosvash**

Aglomeratsiyalari soni 40 ta. Eng yirigi Nyu-York. Umumiy uzunligi 800 km.

- **Ko'lbuyi – Chipits.**

Aglomeratsiyalar soni – 35 ta. Eng yirigi CHikago. Umumiy uzunligi 900 km.

- **Tinchokeanbuyi – San- San**


Aglomeratsiyalar soni – 15 ta. Eng yirigi Los –Anjeles. Umumiy uzunligi 800 km.

3-karta

AQSH MEGAPOLISI



SHIMOLIY- SHARQIY MEGAPOLIS



Yevropada joylashgan megapolislar.

Buyuk Britaniya

➤ Ingliz

Aglomeratsiyalar soni - 30 ta. Eng yirigi – London. Umumiy uzunligi 400 km.

Germaniya, Niderlandiya, Belgiya, Fransiya.

➤ Reyn

Aglomeratsiyalar soni 30 ta. Eng yirigi Reyn – Rur. Umumiy uzunligi – 500 km.

4-karta

Ingliz Megapolisi




5-karta

Reyn – Rur Agglomeratsiyasi.



6-karta

Randstat Agglomeratsiyasi.




Osiyoda joylashgan megapolislar.

Yaponiya

➤ Yapon – Tokaydo

Aglomeratsiyalar soni – 20 ta. Eng yirigi - Tokio. Umumiy uzunligi – 700 km.

Tokaydo Megapolisi



5-jadval

Shakllanayotgan Megapolislar

№	Megapolis nomi	Tarkibidagi asosiy shaharlar
1	Pektyan	Pekin – Tyanzin
2	SHanchjen	Shanxay – Nankin – Chjenchjoy
3	Guansyan	Gunchjoy – Shanchjen – Syangan
4	Jabon	Jakarta shahri atrofi
5	San – Rio	San – paulu – rio – de - Janeyro
6	La – plata	Buenos – Ayres shahri atrofi

5-rasm

Rivojlangan davlatlarda urbanizatsiyaning ko'rinishi.



Rivojlanayotgan davlatlarda urbanizatsiyaning ko'rinishi

6-rasm



2.2. O'zbekistondagi urbanizatsiya jarayonining o'ziga xos jihatlari.

O'zbekistonning birinchi shaxri uning poytaxti Toshkent bo'lsa, uning ikkinchi darajasidagi shaxar Samarqanddir (hozirgi kunda bu mavqega Namangan da'vogarlik qilmoqda).Umumun, respublikamizda 17 ta yirik shaharlar bor. Ular (aholasi ming kishi hisobida, 1.01.1999 y)

➤ Toshkent	2135.9
➤ Namangan	380.9
➤ Samarqand	362.1
➤ Andijon	328.9
➤ Buxoro	239.5
➤ Qarshi	198.8
➤ Nukus	201,8
➤ Qo'qon	193,8
➤ Farg'ona	185,2
➤ Marg'ilon	153,8
➤ Chirchiq	145,1
➤ Urganch	139,1
➤ Angren	129,0
➤ Jizzax	126,7
➤ Navoiy	121,5
➤ Olmaliq	115,1
➤ Termiz	111,9

O'rta shaharlarga Bekobod, Yangiyo'l, Asaka, Xujayili, Kogon, Zarafshan, Guliston, Denov, To'rtkul, Shaxrixon, Shaxrisabz, Koson, Chust, Kattaqo'rg'on, (jami 14 ta) kiradi. Bularning orasida faqat Guliston viloyat markazi. qolgan 203 ta shahar va shaharchalar kichik, ya'ni I-III klasslarga mansubdir.

Shahar aglomeratsiyasining shakllanishi uchun quyidagi shart va sharoitlar zarur:

- ✓ Albatta bir yoki ikki yirik shahar bo'lishi kerak;
- ✓ Uning atrofida kamida ikkita shahar va shaharchalar bo'lishi shart;
- ✓ Markaziy shahar (aglomeratsiya yadrosi) va yo'ldosh manzilgohlar orasidagi masofa eng ko'pi ikki soatlik vaqt doirasida bo'lishi kerak;
- ✓ Aglomeratsiya shahar va shaharchalar o'rtasida "aholi" aloqasi bo'ladi, mayatniksimon (tebranma)
- ✓ Migratsiya rivojlangan bo'lishi shart;
- ✓ Yo'ldosh shaharlarda eng kam aglomeratsiya aholisining 10 foizijoylashgan bo'lishi zarur va h.k.

Ko'rinib turibdiki, aglomeratsiyalar har qanday sharoitda ham vujudga kelavermaydi; juda ko'p shaharlar bo'lsa-yu, ular orasida aglomeratsiya tashkil qiluvchi markaz bo'lmasa, yoki aksincha, yirik shahar bir o'zi bo'lsa bunday holda aglomeratsiya shakllanmaydi. Masalan, Jizzax-u katta shahar, lekin uning atrofida shaharlar kam; Navoiy ham deyarli shunaqa vaziyatda, yoki Shahrisabz-bu yerda Kitob, Yakkabog' va boshqa shaharlar ham mavjud, ammo Shahrisabzni o'zini aglomeratsiya hosil qilish qudrati past.

Aglomeratsiyalar bir markazli (monosentrik) va ko'p markazli (polisentrik) bo'ladi.

Farg'ona-Marg'ilon, Angren-Olmaliq, Andijon, Namangan, qarshi, Nukus, Urganch va boshqa aglomeratsiyalar bitta yirik shahar atrofida vujudga kelgan. Aglomeratsiyalarning tashqi qiyofasi (konfiguratsiyasi) ham turlicha: doirasimon, lentasimon, Cho'zinchoq, amfibiyaga o'xshash bo'ladi. Bu o'sha joyning yer usti tuzilishi, transport tizimi, gidrografiyasiga bog'liq. Odatda, yirik daryolar bo'yida shakllangan aglomeratsiyalar 50-70 va hatto 100 km-ga ch'zilib ketadi (Volgograd, Krivoy Rog, Bratsk aglomeratsiyalari). har qaysi aglomeratsiyaning tarixiy geografik o'rni, asosi bo'ladi. Masalan respublikamizda

eng yirik Toshkent aglomeratsiyasi (u 30 ga yaqin shahar va qishloqlarni birlashtiradi) Chirchiq daryosi asosida vujudga kelgan. Shu sababdan Bo'lsa kerak, u bir oz shimoli-sharqdan janubi-g'arbga cho'zilgan. Demak, u yoki bu mamlakat urbanizatsiya darajasini boshqa mamlakat bilan qiyoslaganda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- ✓ Shahar tashkil qilish mezonlari (masalan, Turkmanistonda buning uchun 5 ming kerak, O'zbekistonda -7 ming);
- ✓ Shaharlarning umumiy soni va zichligi;
- ✓ Yirik shaharlarning mavjudligi;
- ✓ Shahar aglomerasiyalarining rivojlanganligi;
- ✓ Qishloq-shahar va mayatniksimon migratsiya;
- ✓ Aholining bandlik darajasi va tarkibi;
- ✓ Qishloq joylar urbanizatsiyasi, qishloqliklarda shaharchasiga yashash tarzining mavjudligi va h.k.

Yuqoridagilar urbanizatsiyaning naqadar murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa ekanligidan yana bir bor dalolat beradi. Albatta, urbanizatsiya-bu ob'ektiv va umuman olganda ijobiy jarayon. Ammo uning salbiy tomonlari ham yo'q emas. Chunonchi, ekologik va sotsial muammolarning keskinlashuvi hozirgi zamon urbanizatsiyaning eng ko'zga ko'rinarli salbiy "yo'ldoshlaridir".

O'rta Osiyo va O'zbekistondagi urbanizatsiya sharqona xususiyatga ega. Binobarin, bu yerda urbanizatsiya ko'rsatkichini yaqin kelajakda 70-80 foiz bo'lishini tasavvur qilish qiyin. Sababi-bizda shaharlar rivojlanishi qishloq xo'jaligi bilan qadimdan an'anaviy holda bog'liqqolaversa, bunday mamlakatlarda qishloq urbanizatsiyasi ham katta ahamiyatga ega. Boz ustiga, Respublikamiz rahbariyati qishloq joylarda ijtimoiy-iqtisodiy tub o'zgarishlarini amalga oshirish, qishloq industriya va infrastrukturasi jiddiy e'tibor qaratmoqda-ki, bu ham urbanizatsiyaning ichkaridan, "yashirincha" rivojlanishidan darak beradi. Demak, urbanizatsiyaning umumiy geografik ko'rsatkichi garchi ma'lum qulayliklarga ega bo'lsa-da, uning ayrim nozik jihatlari ham mavjud.

O'zbekiston Respublikasi tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 ta ma'muriy viloyat kiradi. Uning poytaxti Toshkent shahridir. Quyidagi jadval O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishini aniq va yaqqol ko'rsatadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi (sobiq Qoraqalpog'iston muxtor respublikasi) 1992- yil 9- yanvarda suveren respublika maqomini oldi. Uning maydoni 166,6 ming kvadrat kilometrga teng bo'lib, 1530,2 ming kishi yashaydi. Qoraqalpog'iston Respublikasi tarkibiga 15 ta qishloq tumani (Amudaryo, Beruniy, Bo'zatov, Kegayli, Mo'ynoq, Nukus, Taxtako'pir, To'rtko'l, Xo'jayli, Chimboy, Shumanay, Ellikqal'a, Qonliko'l, Qorao'zak, Qo'ng'iro't) va 12 ta shahar (Nukus, Beruniy, Bo'ston, Mang'it, Mo'ynoq, Taxiato'sh, To'rtko'l, Xalqobod, Chimboy, Shumanay, Xo'jayli, Qo'ng'iro't) kiradi. Qoraqalpog'istonning poytaxti Nukus shahri bo'lib, unda 236700 kishi yashaydi.

Andijon viloyati — (1941- yil 6- martda tashkil etilgan) maydoni 4,2 kv. km ni tashkil etadi, aholisi 2222,6 ming kishi. Andijon viloyati tarkibida 14 ta qishloq tumani (Andijon, Asaka, Baliqchi, Buloqboshi, Bo'z, Jalolquduq, Izboskan, Marhamat, Oltinko'l, Ulug'nor, Xo'jaobod, Shahrixon, Qo'rg'on'tepa) va 11 ta shahar (Andijon, Asaka, Marhamat, Oxunboboyev, Paxtaobod, Poytug', Xonobod, Xo'jaobod, Shahrixon, Qorasuv, Qo'rg'on'tepa) mavjud. Viloyatning markazi **Andijon** shahridir.

Buxoro viloyati — (1938- yil 15- aprelda tashkil etilgan) maydoni 40,3 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi, aholisi 1442,2 ming kishi. Buxoro viloyati tarkibida 11 ta qishloq tumani (Buxoro, Vobkent, Jondor, Kogon, Olot, Peshku, Romiton, Shofirkon, Qoravulbozor, Qorako'l, G'ijduvon) va 11 ta shahar (Buxoro, Kogon, G'ijduvon, G'alaosiyo, Vobkent, Olot, Gazli, Romiton, Shofirkon, Qorako'l, Qorovulbozor) bor. Viloyatning markazi **Buxoro** shahridir.

Jizzax viloyati — (1973- yil 29- dekabrda tashkil etilgan) maydoni 21,2 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi, viloyatda 996,9 ming kishi yashaydi. Viloyat

tarkibida 12 ta qishloq tumani (Arnasoy, Baxmal, Do'stlik, Jizzax, Zarbdor, Zafarobod, Zomin, Mirzacho'l, Paxtakor, Forish, Yangiobod, G'allaorol) va 7 ta shahar (Dashtobod, Do'stlik, Jizzax, Marjonbuloq, Gagarin, Paxtakor, G'allaorol) mavjud. Viloyat markazi **Jizzax** shahridir.

Navoiy viloyati— (1982- yil 20- aprelda tashkil etilgan, 1988yil 6-sentabrda tugatilib, 1992- yil 28- iyunda qayta tiklandi) maydoni 110,9 ming kvadrat kilometrga teng bo'lib, 794,1 ming kishi yashaydi. Viloyat hududida 8 ta qishloq tumani (Konimex, Navbahor, Navoiy, Nurota, Tomdi, Uchquduq, Xatirchi, Qiziltepa) va 6 ta shahar (Zarafshon, Navoiy, Nurota, Uchquduq, Karmana, Qiziltepa) mavjud. Viloyat markazi **Navoiy** shahridir.

Namangan viloyati —(1941- yil 6- martda tashkil etilgan, 1960- yil 25-yanvarda tugatilib, 1967- yil 18- dekabrda qayta tiklangan) maydoni 7,4 ming kvadrat kilometr bo'lib, 1959,2 ming kishi yashaydi. Viloyat tarkibida 11 ta qishloq tumani (Kosonsoy, Mingbuloq, Namangan, Norin, Pop, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on, Chortoq, Chust, Yangiqo'rg'on) va 8 ta shahar (Kosonsoy, Namangan, Pop, To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on, Chortoq, Chust, Haqqulobod) mavjud. Viloyat markazi **Namangan** shahridir.

Samarqand viloyati —(1938- yil 15- yanvarda tashkil etilgan) maydoni 16,8 ming kvadrat kilometr bo'lib, 2718,7 ming kishi yashaydi. Viloyat hududida 14 ta qishloq tumani (Bulung'ur, Jomboy, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Narpay, Nurobod, Oqdaryo, Payariq, Pstdarg'om, Paxtachi, Samarqand, Toyloq, Urgut, Qo'shrobd) va 11 ta shahar (Bulung'ur, Jomboy, Juma, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Nurobod, Oqtosh, Payariq, Samarqand, Urgut, Chelak) mavjud. Viloyat markazi **Samarqand** shahridir.

Sirdaryo viloyati - (1963- yil 16- fevralda tashkil etilgan) **maydoni** 4,3 **ming** kvadrat kilomctr bo'lib, 653,6 ming kishi yashaydi. Viloyat tarkibida 9 ta qishloq tumani (Boyovut, Guliston, Mehnatobod, Mirzaobod, Oqoltin,

Sayxunobod, Sirdaryo, Xovos, Sharof Rashidov) va 5 ta shahar (Baxt, Guliston, Sirdaryo, Shirin, Yangiyer) bor. Viloyat markazi **Guliston** shahridir.

Surxondaryo viloyati — (1941 - yil 6-martda tashkil etilgan) maydoni 20,1 ming kvadrat metr bo'lib, 1774,4 ming kishi yashaydi.

Viloyat hududida 14 qishloq tumani (Angor, Bandixon, Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Muzrabod, Oltinsoy, Sariosiyo, Termiz, Uzun, Sherobod, Sho'rchi, Qiziriq, Qumqo'rg'on) va 8 ta shahar (Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Termiz, Sharg'un, Sherobod, Sho'rchi, Qumqo'rg'on) mavjud. Viloyat markazi Termiz shahridir.

Toshkent viloyati — (1938- yil 15- yanvarda tashkil etilgan) maydoni Toshkent shahri bilan birga hisoblaganda 15,6 ming kvadrat kilometr bo'lib, 2384,6 ming kishi yashaydi. Viloyat tarkibida 15 ta qishloq tumani (Bekobod, Bo'ka, Bo'stonliq, Zangiota, Oqqo'rg'on, Ohangaron, Parkent, Pskent, Toshkent, Chinoz, Yuqori Chirchiq, Yangiyo'l, O'rta Chirchiq, Qibray, Quyi Chirchiq) va 16 ta shahar (Angren, Bekobod, Bo'ka, Soldatskiy, Keles, Olmaliq, Ohangaron, Oqqo'rg'on, Parkent, Pskent, To'ytepa, Chinoz, Chirchiq, Yangiobod, Yangiyo'l, G'azalkent) mavjud. Viloyat markazi **Toshkent shahrida** joylashgan.

Farg'ona viloyati —(1938- yil 15- yanvarda tashkil etilgan) maydoni 6,7 ming kvadrat kilometr bo'lib, 2709,3 ming kishi yashaydi. Viloyat tarkibida 15 ta qishloq tumani (Beshariq, Bag'dod, Buvayda, Dang'ara, Yozyovon, Oltiariq, Oxunboboyev, Rishton, So'x, Toshloq, Uchko'prik, Farg'ona, Furqat, O'zbekiston, Quva) va 9 ta shahar (Farg'ona, Marg'ilon, Quva, Quvasoy, Qo'qon, Beshariq, Rishton, Yaypan, Hamza) bor. Viloyat markazi **Farg'ona** shahridir.

Xorazm viloyati —(1938- yil 15- yanvarda tashkil etilgan) maydoni 6,1 ming kvadrat kilometr bo'lib, 1350,1 ming kishi yashaydi. Viloyat hududida 10 ta qishloq tumani (Bog'ot, Gurlan, Urganch, Xiva, Hazorasp, Xonqa, Shovot,

Yangiariq, Yangibozor, Qo'shko'pir) va 3 ta shahar (Drujba, Urganch, Xiva) mavjud. Viloyat markazi **Urganch** shahridir.

Qashqadaryo viloyati — (1943- yil 20- yanvarda tashkil etilgan) maydoni 28,6 ming kvadrat kilometr bo'lib, 2215,8 ming kishi

yashaydi. Viloyat hududida 14 ta qishloq tumani (Bahoriston, L)ehqonobod, Kasbi, Kitob, Koson, Muborak, Nishon, Usmon Yusupov, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi, Qarshi, G'uzor) va 12 ta shahar (Beshkent, Kitob, Koson, Muborak, Tollimarjon, Chiroqchi, Qamashi, G'uzor, Yakkabog', Yangi Nishon, Shahrisabz) mavjud. Viloyat markazi **Qarshi** shahridir. **Toshkent shahrida** 2156,5 ming kishi yashaydi. Toshkentda 11 ta — Akmal Ikromov, Bektemir, Mirzo Ulug'bek, Mirobod, Sirg'ali, Sobir Rahimov, Chilonzor, Shayhontohur, Yunusobod, Yakkasaroy, Hamza tumanlari mavjud.

III. Urbanizatsiya jarayonining mintaqaviy tafovutlari mavzusini o'qitish metodikasi.

3.1 “Urbanizatsiya jarayoni va shaxarlarning rivojlanishi” mavzusini o'qitishda mintaqaviy tafovutlar masalasini yoritish.

Bugungi kunda pedagogik texnologiya asosida, qaysikim o'quvchilarning mustakil fikrlash, ijodiy faoliyat ko'rsatishlariga e'tibor kuchayganda o'quvchi ta'lim sub'ktiga aylangan bir davrda muammoli o'qitishning ahamiyati kuchaydi. Zero muammoli ta'lim ilmiy bilish, pedagog tomonidan yaratilgan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o'quvchining mustakil faoliyati, ijodiy qobiliyatini o'stirish orqali o'quv natijalarini maqsadli o'zlashtirishga qaratilgan ta'limdir. Muammoli ta'limni tashkil qilish yordamida o'quvchining tadqiqot, o'quv-biluv faoliyatini yo'lga ko'yish va shu asosida o'quv predmetidagi ma'lumotlarni, xulosalarni mustaqil tahlil qilish yangi bilimlarni ijodiy mushohada qilish, xulosa chiqarish operatsiyalari amalga oshiriladi. Biz o'rganayotgan bitiruv malakaviy ishi mavzusi bo'yicha umumta'lim maktablarining 9-sinf Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi darsligida “Urbanizatsiya jarayoni va shaharlarning rivojlanishi” mavzusini o'qitishda mintaqaviy tafovutlar masalasini muammoli ta'lim texnologiyasi metodlaridan foydalanib, tashkil etilganda yuqori samara beradi. Muammoli o'qitishda o'quvchi faoliyatining mazmuni shundan iborat bo'ladiki, u eng murakkab tushunchalarni, faktlarni tushuntira borib zarur daqiqalarda muammoli vaziyatni vujudga keltiradi va muammoni hal qiladi. Muammoni yechishga o'quvchining o'zini yo'llaydi. Oqibat, natijada o'quvchilar faoliyati shunday tashkil qilinadiki, bunda ular faktlarni tahlil qilish orqali mustaqil ravishda xulosa chiqaradilar, umumlashmalar hosil qiladilar. Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiya fanini o'qitishning muammoli, faol metod va usullari bilan bir qatorda geografik o'yin darslarini keng ko'lamda qo'llanilishi o'quvchilarning darsga bo'lgan. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o'qitishda o'yin darslarini tashkil etish bir qator vazifalarni bajaradi:

1. O'quvchining ijodiy faoliyatini shakllantiradi.
2. Muammolarni ko'ra bilishga o'rgatadi.

3. Mustaqil fikrlash qobiliyatini oʻstiradi.
4. Oʻz-oʻzini boshqarish hususiyatini oʻrgatadi va hokazo.

Bu holat hozirda butun bir taʼlim jarayonini qamrab olmoqdaki, buning asosiy sabablaridan biri mashgʻulotlarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish koʻzlangan aniq natijaga erishishni kafolatlaydi. Dars mazmunidan kelib chiqqan xolda uning vazifalari ham belgilanadi. Dars vazifalari oʻquvchilarga aniq etkazilishi lozim. Ular darsda nimalarni egallashlarini tasavvur qila olsalargina koʻzlagan maqsadga erishishi mumkin. Dars vazifalari oʻquvchilarga qisqa va aniq holda berilishi kerak. Masalan: IX sinfda "Urbanizatsiya jarayoni va shaharlarning rivojlanishi" mavzusida oʻtkaziladigan dars mashgʻulotini oʻqitishning noanʼanaviy usullaridan «Tarmoqlanish usuli» (klaster)dan foydalanib, oʻtish mumkin. Mashgʻulotni boshlashdan avval guruhdagi oʻquvchilarni qurʼa tashlash yoʻli bilan kichik guruhlarga chizmada koʻrsatilgandek boʻlib olish maqsadga muvofiq:

Muammoli darslar koʻpincha "Tafakkur boʻroni", "Miyaga hujum", "Fikrlar toʻqnashuvi", "Fikrlar jangi", "Aqliy hujum" nomlanadi. Hozirda koʻpincha darslarda aqliy hujumdan koʻp foydalaniladi. "Aqliy hujum" quyidagicha tashkil etiladi:

- 1 Psixologik jihatdan bir-biriga yaqin boʻlgan oʻquvchilardan teng sonli kichik guruhlarni shakllantirish;
2. Kichik guruhlarga muammoli savollardan iborat boʻlgan oʻquv topshiriqlarini tarqatish va ularni topshiriqning didaktik maqsadi bilan tanishtirish.
3. Oʻquvchilarning bilish faoliyatini oʻquv muammolarini hal etishga yoʻnaltirish.
4. Oʻquvchilarning muammoli vaziyatlarni hal etish boʻyicha axborotlarini tinglash.
5. Kichik guruhlar oʻrtasida oʻquv bahsi va munozara oʻtkazish
6. Umumiy xulosa yasash.

"Aqliy hujum"da oʻquvchilar avval oʻzlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qoʻllab, bilimlarini kengaytiradi, chuqurlashtiradi, aqliy faoliyat

usullarini egallaydi. O`quvchilarning bilish faoliyatining bu tarzda tashkil etilishi ularda ijodiy faoliyatni tarkib toptirishga imkon yaratadi.

Quyida biz “Urbanizatsiya jarayoni va shaxarlarning rivojlanishi” mavzusida o`tkazilgan muammoli darsning borishini yoritamiz.

Darsning tashkiliy qismidan so`ng, o`qituvchi o`quvchilarni teng sonli guruhlariga ajratadi va har bir guruh sardorini belgilaydi. O`quvchilarning faoliyatini bilishga yo`naltiruvchi bir nechta muammoli savollar yozilgan quyidagi kartochkalarga qaratadi:

1. Atlasdan foydalanib, millioner shaharlarni nomini hududlar miqyosida toping?
2. Jahonda mavjud shahar aglomeratsiyalarini eng yirigidan boshlab yozing?
3. Jahon mamlakatlari Urbanizatsiya darajasiga qarab nechta guruhga bo`linadi?
4. Megasiti tushunchasiga ta`rif bering?

Guruhdagi o`quvchilar shu savollar yuzasidan maslahatlashib, o`z fikrlarini umumlashtiradi. Har bir guruh sardori guruh fikrini bayon etadi.

O`qituvchi guruhlar bayon etgan fikrlarni umumlashtirish dars yakunida amalga oshirilishini e`lon qiladi va navbatdagi muammoli savollar yozilgan kartochkalarni tarqatadi:

1. Ekologik vaziyati murakkab bo`lgan region va shaharlarni aniqlang.
 - a) Qanday omillar ta`sirida vujudga kelgan?
 - b) Qanday chora-tadbirlar qilinmoqda?
 - v) Sizningcha qanday ishlarni amalga oshirish zarur? Javobingizni izohlang.

O`quvchilar guruhi biz savollarga javob topgandan so`ng, o`qituvchi o`quvchilar diqqatini megasity va megalapolis tushunchalariga qaratib, bu ikki tushuncha o`rtasida aloqadorlikni izohlab berishni ta`kidlaydi. Shundan so`ng shaharlarning mintaqaviy tafovutlari bo`yicha o`rganishga kirishiladi. O`qituvchi o`quvchilarga avval o`zlashtirgan bilimlari va darslikdan foydalanib, quyidagi jadvalni to`ldirish va izohlashni topshiradi.

Qit'alar	Millioner shaxar	Aglomeratsiya	Megasiti, Meglapolis

O'qituvchi shaharlarning hududiy tafovutlari yuzasidan o'quvchilar javobini baholab, ularning diqqatini aholi soni bo'yicha jahondagi eng yirik shaharlarga qaratadi:

№	Davlatlar	Shaharlar nomi	Aholisi soni (mln. kishi)

O'quvchilar jadvalni to'ldirib, javoblarini izohlaganlaridan so'ng, o'qituvchi o'quvchilarning diqqatiga quyidagi savollarni havola etadi:

1. Hozirgi zamon urbanizatsiyasiga xos birinchi jihat mazmuni nimadan iborat?
2. Ekologik vaziyatlar murakkab bo'lgan region va shaharlarni aniqlang va sababini izohlang.

Siz qanday fikrlarni bildirasiz? Sizningcha yana qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin?

O'quvchilar javoblaridan so'ng, o'qituvchi darsni umumiy yakunlaydi. Faol ishtirok etgan o'quvchilar reyting asosida baholanadi.

II. Munozarali darslar

Yuqorida qayd etilganidek munozarali darslar ham muammoli ta'lim texnologiyasiga asoslanadi.

Munozarali darslar mazmuni va mohiyatiga ko'ra:

- ✓ Ilmiy munozara darslari

✓ Erkin fikrlash darslariga ajratiladi.

Ilmiy munozara darslari dasturdagi muayyan bir mavzuni o'rganishga bag'ishlanadi.

Mazkur darsning didaktik maqsadi:

1. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish orqali tahsil olishga va fanga qiziqishlarini orttirish, bilimlarini kengaytirish.

2. O'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini odatiy, tanish va kutilmagan yangi vaziyatlarda qo'llash orqali yangi bilimlarni egallashga erishish.

3. O'quvchilarning bilimidagi mavhum tushunchalarni aniqlash va ularga barham berish, bilim olishga bo'lgan intilishni rivojlantirish.

4. O'quvchilarning nutqini o'stirish, o'z fikrini lo'nda va mantiqan to'g'ri bayon etish, ularni dalillash ko'nikmalarini hosil qilish.

Ilmiy munozarali darslardan "Jahon aholisi", "Jahon tabiiy resurslari", "Urbanizatsiya jarayoni va shaharlarning rivojlanishi" kabi mavzulardagi umumlashtiruvchi darslarda foydalanish tavsiya etiladi.

Ilmiy munozarali darslarning tuzilishi quyidagicha bo'ladi:

I. O'qituvchining kirish so'zi. Bunda o'qituvchi dars mavzusining maqsadi va vazifalari, ilmiy munozara o'tkaziladigan muammolarning umumiy tafsiloti, darsda o'quvchilar guruhi bajaradigan o'quv topshiriqlari bilan tanishtiradi.

II. O'quvchilar faoliyatini munozarali va muammoli masalalarni bajarishga va hal etishga yo'llash;

III. O'quvchilar guruhi o'rtasida o'quv bahsi va munozarani tashkil etish;

IV. O'quv bahsi va munozara yakuni. O'qituvchi dars davomida o'quv bahsi va munozara keltirib chiqargan muammolar echimidagi asosiy g'oya va tushunchalarni ta'kidlab, xulosalar yasaydi.

V. O'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash. O'quv baxsi va munozaralarda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va reyting tizimiga muvofiq baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

VII. Darsni umumiy yakunlash.

Muammoli ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshirish, ko'nikmalarni malaka darajasiga etkazish maqsadida qo'llanilib, unda o'quvchi o'quv materialini tahlil qiladi, taqqoslaydi, sintezlaydi, ma'lumotlarni umumlashtirib, yangi axborot oladi. Boshqacha aytganda, avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini yangi vaziyatlarda qo'llab, bilimlarni chuqurlashtiradi, kengaytiradi.

3.2 Dars ishlanmasi va natijalar tahlili.

Muammoli vaziyatni hal etuvchi savolga javob noma'lum bo'lib, uni aniqlashda o'quvchi intellektual qiyinchilikni his etadi. Quyida umumta'lim maktabi Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanining "Urbanizatsiya jarayoni va shaharlarning rivojlanishi" mavzusini o'qitishda muammoli dars mashg'ulotining bir soatlik dars ishlanmasini ko'rib chiqamiz.

Dars №10

Darsning mavzusi: Urbanizatsiya jarayoni va shaharlarning rivojlanishi.

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarga shahar, qishloq, katta shahar, megalopolis, aglomeratsiya va urbanizatsiya jarayoni, hududiy tafovutlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida bilimlar berish va tegishli ko'nikmalar hosil qilish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, vatanparvarlik, ekologik va nafosat tarbiyasini berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O'quvchilarga shahar, qishloq, katta shahar, megalopolis, aglomeratsiya va urbanizatsiya jarayoni, hududiy tafovutlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari rivojlanganligi haqidagi bilimlarini, darslik va xarita ustida mustaqil ishlash, ko'nikmalarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: jahonning Jahonning siyosiy xaritasi, 9-sinf atlas, kontur karta, qog'oz, markerlar.

Darsda foydalaniladigan texnologiya: Muammoli o'qitish texnologiyasi. ("aqliy hujum", "munozarali dars",)

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. O'qituvchining kirish so'zi. Bunda o'qituvchi dars mavzusining maqsadi va vazifalari, ilmiy munozara o'tkaziladigan muammolarning umumiy tafsiloti, darsda o'quvchilar guruhi bajaradigan o'quv topshiriqlari bilan tanishtiradi.

III. O'quvchilar faoliyatini munozarali va muammoli masalalarni bajarishga va hal etishga yo'llash;

IV. Yangi mavzuni o'rganish:

- O'quvchilar guruhi o'rtasida o'quv bahsi va munozarani tashkil etish
- «mutaxassislar» tomonidan belgilangan o'quv topshiriqlarini sifatli bajarishga erishish.

Mavzu	Urbanizatsiya jarayoni va shaharlarning rivojlanishi (mintaqaviy tafovutlari misolida)
Maqsad, vazifalari	Maqsad: O'quvchilarga shahar, qishloq, katta shahar, megalopolis, aglomeratsiya va urbanizatsiya jarayoni, hududiy tafovutlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida bilimlar berish va tegishli ko'nikmalar hosil qilish. Vazifalar: Zamonaviy urbanizatsiyaning o'ziga xos jihatlari, rivojlanishdagi o'rni, mintaqaviy tafovutlari, va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlari to'g'risida bilim berish.
O'quv jarayonini amalga oshirish	Metod: (Muammoli ta'lim texnologiyasi), kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, test Shakl: Ma'ruza, kichik guruhlarda ishlash Vosita: Videoproyektor, iqtisodiy xarita, 8-sinf atlas-kontur kartasi, tarqatma materiallar Usul: Tushuntirish, tayyor chizma materiallar, kartalar Nazorat: kuzatish, savol-javoblar Baholash: rag'batlantirish, o'zini va guruhni baholash

Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: O'z oldiga qo'ygan maqsadga erishadi, o'quvchilar faolligini oshiradi, darsga qiziqishni orttiradi, tizimli ishlashga o'rgatadi. Mustaqil ishlash, ularni xotirada saqlash, savol va javob berishga o'rgatadi. O'quvchi: Yakka va jamoa bilan fikrlash, xotirlash, o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushurish, fikrlarni umumlashtirish, yozma va rasm ko'rinishidagi ishlarni ifodalay olishni o'rgatadi.
Kelgusi rejalar	O'qituvchi: Ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'zlashtirish va darslarga tadbiq etish, takomillashtirish, o'z ustida ishlash, jamoadoshlariga o'rgatish, pedagogik mahoratini oshirish. O'quvchi: xarita va kontur karta bilan ishlashni o'rganish, o'z va guruh fikrini tahlil qilish, bir yechimga kelish malakasini oshirish, o'z yutuqlarini takomillashtirish, kamchiliklarni bartaraf etish, fikrlarni umumlashtirishni o'rganish.

Mazkur darsning didaktik maqsadi:

1. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish orqali tahsil olishga va fanga qiziqishlarini orttirish, bilimlarini kengaytirish.
2. O'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini odatiy, tanish va kutilmagan yangi vaziyatlarda qo'llash orqali yangi bilimlarni egallashga erishish.
3. O'quvchilarning bilimidagi mavhum tushunchalarni aniqlash va ularga barham berish, bilim olishga bo'lgan intilishni rivojlantirish.
4. O'quvchilarning nutqini o'stirish, o'z fikrini lo'nda va mantiqan to'g'ri bayon etish, ularni dalillash ko'nikmalarini hosil qilish.

Mazkur mavzu matni tugallangan fikrli quyidagi qismlarga ajratiladi:

1. Yuqori darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar;
2. O'rtacha darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar;
3. Past darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar.

Shu qismlar bo'yicha o'quvchilarning mustaqil ish topshiriqlari tuziladi:

1- guruh uchun o'quv topshiriqlari:

№	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materiallar yuzasidan o'quv topshiriqlari.	Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar.
1. 2. 3.	Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib, quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring: Zamonaviy urbanizatsiyaga xos birinchi jihat? Millioner shahar nomi, hududiy tafovutlang Ekologik vaziyati murakkab regionlar?	O'quvchilar guruhi bilan hamkorlikda ishlang. O'quvchilar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting.

2-guruh uchun o'quv topshiriqlari:

№	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materiallar yuzasidan o'quv topshiriqlari.	Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar.
1. 2. 3	Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib, quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring. Zamonaviy urbanizatsiyaga xos ikkinchi jihat? Mavjud megalopolislar, hududiy tafovutlari? Ekologik vaziyati murakkab regionlar shaharlar?	O'quvchilar guruhi bilan hamkorlikda ishlang. O'quvchilar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting

3-guruh uchun o'quv topshiriqlari:

№	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materiallar yuzasidan o'quv topshiriqlari	Topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar.
	Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib, quyidagi	O'quvchilar guruhi

1.	savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring.	bilan hamkorlikda ishleng.
2.	Zamonaviy urbanizatsiyaga xosikkinchi jihat?	O'quvchilar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting.
3.	Mavjud megalopolislar, hududiy tafovutlari?	
	Ekologik vaziyati murakkab regionlar shaharlar?	

O'zlashtirgan bilimlaringiz asosida darslik va xaritadan foydalanib, quyidagi jadvalni to'ldiring.

Qit'alar	Aglomeratsiya	Millioner shaharlar	Katta shaharlar	Megacity	Super shahar

b) «mutaxassislar uchrashuvi» guruhini tashkil eting va mazkur guruhlarda «mutaxassislar» yordamida o'quv materialining yaxlit holda qayta ishlab chiqilishini amalga oshiring.

V. Yangi mavzu yuzasidan o'quvchilar o'rtasida savol-javob bahsi ya'ni “aqliy hujum”ni uyushtirish.

1. Urbanizatsiyaning inson hayotida shaharlar ahamiyatining oshishi ?
2. Yuqori urbanizatsiya darajasiga ega bo'lgan mamlakatlardan misol keltiring?
3. Urbanizatsiya darajasi atrof-muhitga qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. Ekologik vaziyati og'ir bo'lgan shaharlari?

VI. O'quvchilar bilimini test savollari yordamida nazorat qilish va baholash.

VII. Yangi mavzuni qayta ishlash va yakunlash.

VIII. Natijalarni tahlil qilish va baholash.

O'quvchilar har bir nazorat tekshiruvchilaridan baholarini olgach, o'qituvchi baholarini umumlashtirib, o'quvchilar bilan birgalikda qo'yilgan baholarni tahlil qiladi. Har bir o'quvchi egallagan bilimi va ko'nikmalariga tegishli baho olgach, ularning nimalarni qayta ko'rib chiqishlari uqtiriladi. Bo'lim yoki bob bo'yicha har bir o'quvchi shu tariqa baholanadi. Sinov uyushtirishdan oldin ijobiy guruxdan

iborat o'quvchilar maxsus konsultatsiyalar uyushtirishlari va zarur hollarda alohida o'quvchilar bilan shug'ullanishlari ham mumkin.

IX. Uyga vazifa: Yozuvsiz xaritaga iqtisodiy rayonni tushiring va mavzuga oid krossvord tuzing.

XULOSA

“Urbanizatsiya jarayonining mintaqaviy tafovvtlari” mavzusida bitiruv malakaviy ish yozish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Urbanizatsiya jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Ushbu jarayonning rivojlanishida hududda sanoat korxonalarining, transport yo'llarining barpo etilishi bilan bog'liq.

2. Urbanizatsiya jarayoni shakllanishi hududiy farqlarga ega. Rivojlangan davlatlarda shahar hududlarining kengayishi, suburbanizatsiya, rurbanizatsiya kabi zamonaviy urbanizatsiya ko'rinishlari rivojlanayotgan bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlarda esa aglomeratsiya, megalopolislar paydo bo'lishi bilan bir qatorda soxta urbanizatsiya holati ham yuzaga kelmoqda.

3. O'zbekistonda mustaqillik yillarida urbanizatsiya jarayoni bilan bog'liq bir qator ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Yangi shahar aholi manzilgohlarining shakllanishi, shaharsozlikda zamonaviy loyihalar asosida shaharlarning qiyofasini o'zgarishi shulur jumlasidandir.

4. Urbanizatsiya jarayoni maktab geografiya darsliklari orasida 8 va 9 sinf mavzularida ko'rib chiqiladi. BMI mavzusiga xos xususiyatlar 9-sinf “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanida o'qitiladi. Bunda muammoli o'qitish texnologiyasi ijobiy samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009.
2. Karimov I. Amalga oshirilayotgan islohatlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyati qurish - yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. Xalq so'zi. 10.12.2013 y.
3. Гладкий Ю.Н., Николина В.В. География. Учебник для 10-11 классов. – М.: Просвещение, 2008.
4. Голубчик М.М. Политическая география мира: Учебное пособие для вузов. – Смоленск: СГУ, 1998.
5. Ziyomammedov B. Ta'lim texnologiyalari. – T.,2012.
6. Ишмухамедов Р, Абдукодиров А, Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. – Т, 2008.
7. Липец Ю.Г., Пуляркин В.А, Шлихтер С.Б. География мирового хозяйства. – М.: Гуманит. Изд. центр Владос, 1999.
8. Максаковский В.П. Географическая картина мира. Книга II. Региональная характеристика мира. – М.: Дрофа,2004. – 490 с.
9. Максаковский В.П. Общая экономическая и социальная география. Курс лекций. Часть I. – М.: Владос, 2009.
10. Родионова И.А. Экономическая и социальная география мира. – М.: Юрайт, 2012.
11. Социально-экономическая география зарубежного мира. – М.: Дрофа, 2001.
12. Qayumov A, Safarov I, Tillaboeva M. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. 9-sinf uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2010.
13. Экономическая, социальная и политическая география: мир, регионы, страны. – М.: Экон – Информ, 2008.
14. 9-синф учун атлас. – Т.: Ўқитувчи, 2013.
15. www.prb.org
16. [www. geographyabout.com](http://www.geographyabout.com)

Bitiruv malakaviy ish mavzusiga oid inglizcha – o'zbekcha atamalar lug'ati

	Inglizcha	O'zbekcha
1	Arabian	Arab
2	Aziya	Osiyo
3	Saydi Arabiya	Saudiya Arabistoni
4	Ambient	O'rab turgan
5	anxiety	Notinchlik
6	Accession	O'shish
7	Ancient	Qadimiy
8	Administrative	Ma'muriy
9	Agrarian	Agrar
10	Agriculture	Qishloq xo'jaligi
11	Anniversary	Yillik
12	Annual	Yillik
13	Area	Maydon
14	Ascendant	Ta'sir ko'rsatmoq
15	Atmospherical temperature	Havo harorati
16	Aviculture	Parrandachilik
17	Along shore	Qirg'oqbo'yi
18	Aluminium	Alyuminiy
19	Atomic energy	Atom energiyasi
20	Grain	Don
21	Birth-rate	Tug'ilish darajasi
22	Business	Bandlik

23	Carboniferous	Toshko'mirli
24	Carton	Carton
25	Coal	Ko'mir
26	Coast	Qirg'oqbo'yi
27	Coke	Koks
28	Centre	Markaz
29	Channel	Kanal
30	Chart	Karta
31	Climate	Iqlim
32	Condition	Sharoit
33	Cotton	Paxta
34	Company	Kompaniya
35	Damp	Namlik
36	Density	Zichlik
37	Development	Rivojlanish
38	Disposal	Joylashuv
39	Religion	Din
40	Economic	Iqtisodiy
41	Economics	Iqtisodiyot
42	Enterprise	Korxona
43	Export	Eksport
44	Fabrication	Ishlab chiqarish
45	Factor	Omil
46	Fecund	Unumdor

47	Fertile	Serxosil
48	Forest, wood	O'rmon
49	Tree	Yog'och
50	Fruetgrowing	Mevachilik
51	Field crops	Dala ekinlari
52	Garden-tillage	Bog'dorchilik
53	Historical	Tarixiy
54	Natural gas	Tabiiy gaz
55	Grain	Don
56	Geographical	Geografik
57	Plant	Zavod
58	Population	Aholi
59	Relief	Relief
60	Anniversary	Yillik
61	Resource	Resurs
62	Oil	Neft'
63	Ocean	Ocean
64	Copper	Mis
65	Connections	Aloqalar
66	Partnership	Hamkorlik
67	Power engineering	Energetika
68	Production	Xo'jalik
69	Organization	Tashkilot
70	Tourism	Turizm

71	World	Dunyo
72	Country	Mamlakat
73	Gold	Oltin
74	Sity	Shahar
75	Desert	Dasht
76	Steel	Po'lat
77	River	Daryo
78	Mountain	Tog'
79	Suight	Balandlik
80	Lend	Qo'rg'oshin
81	District	Rayon
82	Border	Hudud
83	North	Shimol
84	South	Janub
85	west	G'arb
86	east	Sharq
87	Government	Hokimiyat
88	Forward	Daromad
89	Money	Pul
90	Product	Mahsulot
91	Industry	Sanoat
92	Stable	Barqaror
93	Potassium	Kaliy
94	Railway	Temir yol

95	Spirits	Rux
96	Expenditure	Xarajat
97	Manufactory	Gazlama
98	Urbanization	Urbanizatsiya
99	Price	Narx
100	Relatively	Nisbiy
101	Running water	Oqar suv
102	Field	Poliz
103	Ore	Ruda
104	Education	Ta'lim
105	Mosque	Masjid
106	Technology	Texnologiya
107	Geography	Geografiya
108	Economic Geography	Iqtisodiy geografiya
109	Social geography	Ijtimoiy geografiya
110	Political Geography	Siyosiy geografiya
111	Fizic geography	Tabiiy geografiya
112	Integration	Integratsiya
113	Factory	Fabrika
114	Globalization	Globallashuv
115	Migration	Migratsiya
116	Natural Resources	Tabiiy resurslar
117	Continent different	mintaqaviy tafovut
118	Peculiarity	Xususiyat

119	Law	Qonun
120	Basic	Kadr
121	Quality	Sifat
122	Skill,experience	Malaka
123	Talent,Cift	Mahorat
124	Art	San'at
125	Responsibility	Ma'suliyat
126	Specialist, expert	Mutaxasis
127	Teacher, educational specialist	Pedagog
128	Teacher	O'qituvchi
129	Activity	Faoliyat
130	Profession,trade	Kasb
131	Thinking, mentality	Tafakkur
132	Lyceum	Litsey
133	Metod	Uslub
134	Scientist	Olim
135	Technology	Texnologiya
136	Experience	Tajriba
137	The news	Yangilik
138	Innovation	Innovatsiya
139	Reform	Isloxot
140	Pupil	O'quvchi
141	Tradition, customs	Qadriyat
142	Fermer	Fermer

143	News,information	Axborot
144	Academician	Akademik
145	Hectare	Gektar
146	Gegrle	Gradus
147	Warm	Iliq
148	South	Janub
149	Atesion well	Artizan qudug'i
150	Border	Chegara
151	Inhobi tants	Aholi
152	Emplitude	Ampilituda
153	Irrigation, lalal	Kanal, anhor
154	Modernization	Modernizasiya qilish
155	Industrial	Sanoatlashgan
156	Ekologik problems	Ekologik muammo
157	Agreed upan flul	Shartli yoqilg'i
158	Gross national product	Yalpi milliy mahsulot
159	Neds, wants, ments	Ehtiyoj
160	Process	Jarayon